


**Matyaqubov X.X., Shukurov R.J.**

# **O'ZBEKISTON TARIXI**

*fanidan seminar mashg'ulotlari bo'yicha  
uslubiy qo'llanma*



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

# **O'ZBEKISTON TARIXI**

**fanidan seminar mashg'ulotlari bo'yicha  
uslubiy qo'llanma**

**Bilim sohasi: 100000  
Ta'lim sohasi: 110000**

Mazkur “O‘zbekiston tarixi” fanidan seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligining 2011-yil 17-sentabrdagi 392-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston tarixi fan dasturi asosida yaratildi.

Uslubiy qo‘llanmada har bir mavzuga ilova etilgan adabiyotlar majmuini tahlil etgan holda, vatanimiz tarixini haqqoniy va xolisona yoritish uchun uslubiy ko‘rsatmalar tavsiya etiladi.

**Tuzuvchilar:** - t.f.n., Matyaqubov X.X.  
o‘qit. Shukurov R.J.

**Taqrizchilar:** - t.f.n., dots. Yuldashev B.  
- t.f.n., Ismatullayev F.

Uslubiy qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU O‘quv-uslubiy kengashining 2016 yil 12 maydagi 11-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## So'z boshi

1991-yildan Vatanimiz O'zbekiston tarixida yangi davr – mustaqil taraqqiyot davri boshlandi. Xalqimiz demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida dastlabki sinovlardan o'tdi. Istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Demokratik islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda.

Yangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma'naviy dunyosi, kasb-mahoratiga bog'liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g'oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog'lom fikrni uyg'otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun g'oyaviy kurashuvchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma'naviyatli komil inson bo'lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida "O'zbekiston tarixi" fanining ahamiyati katta.

Bugungi kunda Oliy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan bakalavriatning barcha yo'nalishlarida "O'zbekiston tarixi" fani o'qitiladi. "O'zbekiston tarixi" fani o'quv dasturiga kiritilgan nazariy va konseptual-metodologik mazmundagi mavzular Prezidentimiz Islom Karimovning 1998-yil 26-iyun kuni Respublikamizning taniqli olimlari va mutaxassislari bilan bo'lgan suhabatida hamda "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida insoniyat uchun eng muhim boylik bo'lgan ma'naviyatni yuksaltirish, uni yoshlar qalbi va ongiga chuqur singdirishga xizmat qiladigan g'oyalar va metodologik ko'rsatmalar ruhida o'qitilmoqda.

1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti jamoasi tomonidan "O'zbekiston xalqi davlatchiligi tarixi" konsepsiysi ishlab chiqildi. Bundan ko'zlangan maqsad Vatanimizning boy va rang-barang tarixini tiklash, uning negizida xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod tafakkurida haqqoniy tarixni idrok etish hamda tarixiy xotira tuyg'usini shakllantirishdan iborat bo'ldi.

"O'zbekiston tarixi" fani ajodolarimiz hayotida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni tahlil qilishni, ularning sabablari va mohiyatini, ichki va tashqi omillarini, umumiyligi va o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishni ko'zda tutadi. Bu o'z navbatida, talaba-yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yuksak ma'naviyatli komil inson qilib tarbiyalashga va ularda milliy g'oya, tarixiy tafakkurni shakllantirishga ko'maklashadi. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q".<sup>1</sup>

Ma'ruba mashg'ulotlarining mazmuni har bir talaba jamiyat taraqqiyoti qonunlarini yaxshiroq tushunishi, mamlakatimizda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatni aniq anglab yetishi va chuqur idrok etishiga qaratiladi.

Seminar mashg'ulotlarda talabalar o'zaro munozaralar orqali, muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha ma'ruzalar va mustaqil ishlash jarayonida olgan bilimlarini chuqurlashtiradilar. Bu jarayon talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan metodik ko'rsatma vazifasini bajarmog'i lozim.

Talaba so'zga chiqqanda amaliy mashg'ulot rejasidagi savollarni har tomonlama yoritishga harakat qilib, ko'rib chiqilayotgan masalalarni hozirgi zamon

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., "Ma'naviyat", 2008. B.4.

voqeligi bilan uzviy bog'lay ola bilishi, bilim va tushunchasini chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim.

Ushbu uslubiy qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tayyorlangan namunaviy dastur asosida universitet o'quv rejasiga binoan "O'zbekiston tarixi" fani bo'yicha ajratilgan 116 saat mashg'ulot, jumladan, 38 saat ma'ruza, 38 saat seminar hamda 40 saat mustaqil ishlashlar uchun ajratilgan yuklama asosida tayyorlandi.

Qo'llanmada seminar mashg'ulotlar mavzusi, rejasi va uni yoritish uchun zarur bo'lган adabiyotlar, rejada ko'rsatilgan har bir savolga alohida metodik tavsiyalar hamda mavzuning asosiy tayanch tushunchalari berildi.

Uslubiy qo'llanma universitetning bakalavriat yo'nalishi notarix fakultet talabalarga va yosh o'qituvchilarga mo'jallangan.

## Seminár mashg'ulotlari mavzulari va ularga ajratilgan soatlar

<b>Nº</b>	<b>MAVZILAR</b>	<b>soat</b>
1.	Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri.	2
2.	"Avesto" kitobi O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba.	2
3.	Vatanimiz hududida vujudga kelgan dastlabki davlatlar.	2
4.	O'zbek xalqining shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlari.	2
5.	Ilk o'rta asrlar davrida o'zbek davlatchiligi.	2
6.	Buyuk Ipak yo'li va hozirgi zamон.	2
7.	Markaziy Osiyo xalqlarining IX-XII asrlardagi fan va madaniyati.	2
8.	Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayat.	2
9.	O'zbek xonliklari davrida ijtimoiy-siyosiy parokandalik sabablari va uning oqibatlari.	2
10.	Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishi va mahalliy aholining unga qarshi olib borgan kurashi.	2
11.	Turkistonda jadidchilik harakati.	2
12.	Sovet hokimiyatining davlat tepasiga kelishi va unga qarshi qurolli harakatlar.	2
13.	Sovetlar davrida O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy qaramligi. Qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari.	2
14.	O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida (1989-1991).	2
15.	Mustaqil O'zbekiston davlatining barpo etilishi. Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatasi asoslarining shakllantirilishi.	2
16.	O'zbekistonda bozor munosabatlарining shakllantirilishi. Iqtisodiy islohot samaralarini.	2
17.	O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar va ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi.	2
18.	Mustaqillik yillarda mahnaviy-madaniy islohotlar.	2
19.	O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va roli.	2
<b>JAMI</b>		<b>38</b>

## **1-MAVZU: MARKAZIY OSIYO INSONIYAT SIVILIZATSİYASINING QADIMGI O'CHOQLARIDAN BIRI.**

### **Reja:**

1. Markaziy Osiyo jahon antropogen mintaqalaridan biri sifatida. Paleolit davri va uning bosqichlari.
2. Mezolit va neolit davri. Xo'jalikning ilg'or shakllariga o'tilishi.
3. Eneolit va Bronza davri. Xo'jalik taraqqiyoti va mulkiy tabaqlanishning kelib chiqishi.
4. Temir davri. Davlatchilikka o'tish shart-sharoitlari.

### **Adabiyotlar.**

1. Азamat Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т., “Шарқ”. 2000. –Б. 25-26.
2. Жўраев У., Сайджонов Й. Дунё динлари тарихи. – Т., “Тошкент ислом университети”, 2002. – Б. 27-35.
3. Ражабов К., Қандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг мухим саналари. Тўлдирилган бешинчى нашри. –Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 9-21.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –Б.14-27.
5. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
6. Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи. (Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик). 1-жилд. –Т., “Янги аср авлоди”, 2014. –Б. 29-92.
7. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. –Т., 2015. –Б. 7-16.

### **1. Markaziy Osiyo jahon antropogen mintaqalaridan biri sifatida. Paleolit davri va uning bosqichlari.**

Ma'ruba va tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan holda Markaziy Osiyo qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi ekanligini arxeologik manbalar asosida yoriting. Insonning paydo bo'lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar, antropogenez jarayoni (“Ishbilarmon odamlar”, “aql idrokli odamlar”, eng qadimgi va qadimgi odamlar), ibtidoiy jamiyat, uni davrlashtirish va bu boradagi yangicha yondashuvlar. Paleolit davri bosqichlari. Ilk paleolit davriga oid makonlar (Selung'ur, Ko'lbuluoq). Farg'ona odami. O'rta paleolit davri odamlari va ularning makonlari (Teshiktosh, Omonqo'ton, Obiraxmat), olovning kashf etilishi va uning ahamiyati. So'nggi paleolit davri odamlari yashagan makonlar (Samarqand, Shug'nov, Qorakamar). Tosh davri ibtidoiy xo'jaligidagi o'zgarishlar. Insonlarning yaratuvchanlik faoliyati.

Mehnat quollarining takomillashuvi. Urug'chilik jamoasi (ona urug'i) ning shakllanishi va uning taraqqiyoti to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ling.

## **2. Mezolit va neolit davri. Xo'jalikning ilg'or shakllariga o'tilishi.**

Mezolit (o'rta tosh) davrining o'ziga xos jihatlari. Bu davr odamlarining makonlari (Mochay, Qo'shilish, Obishir). O'q-yoyning ixtiro qilinishi va uning ahamiyati. Odamlarning hayvonlarni qo'lg'a o'rgatishi, boshqoli o'simliklarni o'stirish malakalarining o'zlashtira boshlanishi. Tasviriy san'at (Zarautsoy, Sarmishsov, Takatosh, Teraklisoy, Nurota) yodgorliklari haqidagi ma'lumotlarni o'rganib o'sha davr tarixi to'g'risidagi tushunchaga ega bo'ling. Mayda tosh quollar – mikrolitlarning paydo bo'lishi tarixiy sabablari. Zarautsoy qoyatosh suratlari manbalari orqali o'sha davrga xos bo'lgan diniy qarashlar haqida bilimlarga ega bo'ling.

Neolit (yangi tosh) davri. Joytun madaniyati. O'rta Osiyodagi dastlabki dehqonchilik manzillari. Kaltaminor madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy Farg'ona neolit davri yodgorliklari. Hisor madaniyati. Tosh quollarining takomillashuvi. Bاليqchilik, chorvachilik va dehqonchilikning paydo bo'lishi, Ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilishi, hunarmandchilikning vujudga kelishi tarixiy ahamiyatini tushuntiring.

## **3. Eneolit va Bronza davri. Xo'jalik taraqqiyoti va mulkiy tabaqlananishning kelib chiqishi.**

Eneolit davrining oziga xos tomonlari. Sarazm, Anov va Zamombobo madaniyatlari. O'rta Osiyo mintaqasida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati markazlarining paydo bo'lishi. Bronza davri, uning yodgorliklari (Namozgoh, Oltintepa, Sopollitepa, Tozabog'yob, Amirobod, Chust madaniyatlari). Vatanimiz hududlarida o'troq dehqonchilikning rivojlanishi. Patriarxal ota urug'i munosabatlarining yuzaga kelishi. Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. Mehnatning birinchi yirik taqsimoti tushunchasi mohiyatini ochib bering.

Xo'jaliklarning ixtisoslashuvi. O'troq va ko'chmanchi aholi munosabatlari. O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi (Oltintepa, Sopollitepa, Jarqo-ton va boshqalar). Zardushtiylig ta'lomitining tarixiy ildizlari. Yozuv madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi masalalarini yoriting.

## **4. Temir davri. Davlatchilikka o'tish shart-sharoitlari.**

Temir davri va uning yutuqlari. Temir mehnat quollarining moddiy-xo'jalik hayotdagi o'zgarishlarda tutgan o'mi. Yirik sug'orish inshootlari, kanallar qurilishi va ularning arxeologik dalillari. Farg'ona, Zarafshon, Chirchiq vodiylarida, Xorazm, Baqtriya, Surxonaryo va Qashqadaryo vohalarida yirik aholi manzilgohlari vujudga kelganligini manbalar asosida o'rganing. Jamiyatda boshqaruv tiziminining vujudga kelishi, dastlabki shahar-davlatlar (Chust, Dalvarzin, Ashqoltepa, Elaton va

Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlaridagi shaharlar) haqida ma'lumotlar to'plang.

O'rta Osiyo xalqlari haqida yozma ma'lumotlar. Skilak, Gekatey, Gerodot, Ktesiy, Strabon, Sima Szyan, Pompey Trog, Dionisiy Periyegitlar keltirgan ma'lumotlarni o'rganing.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Tosh davri. Paleolit. Antropogenez. Evolyutsiya. O'zlashtiruvchi xo'jalik. Chopper. Sivilizatsiya. Ibtidoiy to'da. Neandertal. Urug' jamoasi. Kromanon. Madaniyat. Matriarxat. Politeizm. Animizm. Totemizm. Fetishizm. Mezolit. Mikrolitlar. Neolit. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik. Eneolit. Bronza davri. Birinchi yirik mehnat taqsimoti. Ikkinci yirik mehnat taqsimoti. Patriarxat. Monoteizm. Harbiy demokratiya davri. Hududiy qo'shnichilik jamoasi.

### **Munozara uchun savollar.**

1. Sivilizatsiya tushunchasiga ta'tif bering.
2. Yerda odamning paydo bo'lishi haqida qanday qarashlarni bilasiz?
3. Tarixiy davrlar ketma-ketligini sanab bering.
4. Paleolit davri necha bosqichdan iborat va qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
5. O'rta Osiyo va O'zbekiston hududida ilk odamlar yashagan qanday manzilgohlarni bilasiz?
6. Matriarxat nima? Patriarxatchi?
7. Mezolit davri qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
8. "Neolit inqilobi" nima?
9. Eneolit va bronza davrlarining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
10. Eng qadimgi diniy e'tiqodlar qachon paydo bo'lgan?
11. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik qachon, qanday paydo b'lgan?
12. Temur qachon kashf etildi va insoniyat sivilizatsiyasida uning qanday o'mi bor?
13. O'rta Osiyoda qadimgi shahar madaniyati qachon, qayerlarda va qanday sharoitlarda shakllangan?
14. Qadimgi ajdodlarimiz madaniyati va san'ati haqida nimalarni bilasiz?
15. Insoniyat taraqqiyotida yozuvning qanday o'mi bor?

## **2-MAVZU: “AVESTO” KITOBI O’ZBEKISTON TARIXINI O’RGANISHDA MUHIM MANBA.**

### **Reja:**

1. “Avesto” kitobi paydo bo’lgan hudud haqidada munozaralar.
2. “Avesto” kitobida qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy turmushi va madaniy hayotiga oid ma’lumotlar.
3. “Avesto” kitobida zardushtiylik dini tamoyillari va qonun qoidalaring asoslab berilganligi.
4. “Avesto” kitobining O’rta Osiyo va boshqa hududlar bo’ylab tarqalishi va uning qadimgi xalqlar ma’naviy hayotiga ta’siri.

### **Adabiyotlar.**

1. Каримов. И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. –Т., “Ўзбекистон”, 1998.
2. Авесто: Яшт китоби. / М.Исҳоқов таржимаси. –Т., “Шарқ”, 2001.
3. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Т., “Шарқ”, 2001.
4. Ватан туйғуси. –Т., “Ўзбекистон”, 1996.
5. Жўраев У., Сайджонов И. Дунё динлари тарихи. –Т., “Тошкент ислом университети”, 2002. –Б. 36-49.
6. Сагдуллаев А. Кадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Т., “Ўқитувчи”, 1996. –Б. 16-20.
7. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O’zbekiston tarixi / Oliy o’quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o’quv qo’llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
8. Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи. (Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик). 1-жилд. –Т., “Янги аср авлоди”, 2014. –Б. 77-92.
9. Qodirov B., Matyaqubov X. O’zbekiston tarixidan mavzular bo‘yicha izohli lug‘at. –Т., 2015. –Б. 13-16.

### **1.“Avesto” kitobi paydo bo’lgan hudud haqidada munozaralar.**

Ma’ruza materiallari va adabiyotlardan foydalangan holda zardushtylarning muqaddas kitobi bo’lgan “Avesto” vujudga kelgan tarixiy vaziyatni ta’riflab bering. Buning uchun siz adabiyotlar ro’yxatida ko’rsatilgan manbalar asosida Zardushtning Vatani qayerlar ekanligini aniqlang va bu haqda “Avesto” va yunon mualliflarining xabarlarida eslatilganidek O’rta Osiyo va Sharqiy Eron hududlarida Axamoniylar imperiyasi tarkib topgunga qadar qandaydir davlat tuzilmasi bo’lganligi, bu davlat tuzulmasi harbiy demokratik tipdagisi qabilalar ittifoqidan o’sib chiqqan qadimgi davlat ekanligini aniqlang.

Yirik xorazmshunos olim S.P.Tolstov, A.Asqarov, M.Ishoqov, R.Sulaymonov, A.Sagdullayev va boshqa xorijiy olimlarning arxeologik va tarixiy geografik

ma'lumotlari asosida "Avesto" da eslatilgan Zardushtning vatanı Arianam Vayjo, uni qaysi viloyatlar bilan qiyoslash mumkinligi to'g'risida ma'lumotlarni keltirin. Daytiya daryosi bu qaysi daryo?

"Avesto" kitobida Aryanam Vayjidan boshqa yana qaysi viloyatlar sanab o'tilgani va ular O'rta Osiyoning qaysi hududlariga to'g'ri kelishini bilib oling.

## **2."Avesto" kitobida qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy turmushi va madaniy hayotiga oid ma'lumotlar.**

Bu savolga javobni asoslash uchun ma'ruza matnlariga murojat qilish va ko'rsatilgan adabiyotlarning Zardusht vatanı va yashagan davriga oid mulohazalarga tegishli qismlarini o'qib chiqish kerak.

O'rta Osiyo va Sharqiy Eron hududlarida Ahamoniylar sultanati tashkil topgunga qadar davlat tuzumi bo'lganligi haqida dastlabki ma'lumotlarni berganda, Vatanimizdagi qaysi dastlabki davlat nazarda tutilgan edi?

Avesto manbasi orqali dastlabki harbiy-demokratik davlat konfederasiyalari boshqaruv tizimi ijtimoiy, diniy turmush va madaniy hayotiga oid ma'lumotlarni aniqlang.

Qadimgi Baqtriya podsholigi haqida yunonistonlik tabib Ktesiy va tarix fanining otasi Geradot ma'lumotlarida bu haqda qanday ma'lumotlar berilganligini ko'rib chiqing.

## **3."Avesto" kitobida zardushtiylik dini tamoyillari va qonun qoidalalarining asoslab berilganligi.**

Otashparastlik dinining yaratilishi davri tarixi shart-sharoitini ochib bering, bu denga qadar ibridoij ajdodlarimiz turli qabilaviy diniy tasavvurlarga amal qilib yashaganligini aniqlang. Zardusht diniy qarashlari, ham ana shu ko'p diniy qarashlarning biri sifatida, ildizlari qadim zamonalarga borib taqalishini anglab yetishingiz lozim.

Zardushtning tarixiy shaxs bo'lib mahalliy qabilaviy dinlardan biri bo'lgan otashparastlik dinining rohibi ekanligi, u bundan 2700 yil avval yashaganligini ko'rsatib, bu davrda urug'chilik jamiyatining yemirilishi, patriarchal oilaviy tizimning tarkib topishi, mehnat taqsimotining takomillashib borishi, bu esa ayrim shaxslar qo'lida ortiqcha boylikning paydo bo'lishi o'z navbatida sinfiy jamiyatning paydo bo'lishiga olib kelgan davr bo'lganligini ko'rsating.

Ko'p xudolik jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichiga to'sqinlik qiluvchi omil bo'la boshlaganligiga, Zardusht olg'a surgan ta'limot qabilalararo nizolarga barham beruvchi va totuvlikka eltgvuvchi g'oya sifatida vujudga kelishi tarixiy zarurat bo'lganligiga e'tibor qarating.

Xudolar va yomon ruhlar to'g'risidagi afsonalar o'miga vujudga kelgan dastlabki diniy ta'limot bo'lgan Zardushtiylik O'rta Osiyoda paydo bo'lganligini isbotlang.

Unda butun koinot ikki podsholikka ajratilib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi doimiy kurash natijasida nur podsholigi ya'ni yaxshilik g'olib kelib butun olamni rohat farog'atga olib kelishi kuylanishini bilib oling.

Barcha o'lik narsalar noplari hisoblanib, bunga ko'ra o'liklarni ko'mmay (bu mumkun bo'lman) ularni maxsus joyda saqlab, suyaklar etdan tozalangandan so'ng alohida idish-ossuariylarda daxmaga qo'yilgan. Bu odad hozirga qadar Hindistondagi Gudjarat va Bombeyda saqlanib qolninganini esda tuting.

Yer suv, havo, olov muqaddas hisoblanib, ariqlardagi suv ekin-tekin va ichish uchungina ishlatalib, uni iflos qilish, "xarom" qilish, unga tupurish, hayvonlarni kiritish man qilingan.

Zardusht ta'limotida Axuramazdaga sodiq qush Semurg'-Xumo yuqori qadrlanganligi, uni barcha gerblarda mardlik va zafar ramzi sifatida tasvirlanganligini, u bizning mustaqil davlatimiz gerbida ham aks etganligini ko'rsatib bering.

Axuramazda pirovard natijada g'alaba qozonib, barcha noplari narsalardan holi bo'lgan erda ezgu hayot qaror topadigan, umumiy baxt, saodat va mutloq poklik, rohat-farog'at zamoni kelishi kuylanishini his eting. Shu yo'lda hammani yaxshilik uchun kurashga, bir dingga bo'ysinishi, birlashishni targ'ib qiluvchi buyuk bir ta'limot ekanligini bilib oling.

#### **4. "Avesto" kitobining O'rta Osiyo va boshqa hududlar bo'ylab tarqalishi va uning qadimgi xalqlar ma'naviy hayotiga ta'siri.**

Bu masalaga tayyorgarlik ko'rganda "Avesto" va uning Videvdat kitobida qadimgi Turon O'lkasi va Eronning o'ziga xos tarixiy geografiyasi bayon etilganligi, bunga ko'ra zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto" vatani dastlab O'rta Osiyo jumladan Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona ekanligini arxeologik manbalar asosida isbotlang.

Zardusht tug'ilgan yurt ta'rifini keltiring.

"Avesto" kitobi haqida buyuk olim Abu Rayxon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklari" nomli asarida nimalar deyilgan?

"Avesto" kitobining tarqalishi, ko'p xudolik dini qarashlariga barxam berib, uning qadimgi xalqlar ma'naviy hayotiga ulkan ta'siri. Turonzamindan, xususan Xorazm va Sug'diyonadan boshlanib to janub va janubiy g'arb tomonga tarqalgan Zardusht dini targ'ibotining bosib o'tgan yo'lini ko'rsating.

"Avesto" kitobida eslatiladigan Turlar va Turon tushunchalariga aniqlik kriting. Bronza davri oxirlaridan bu zaminda turkiyzabon xalqlar yashab kelganligini arxeologik manbalar asosida bayon eting.

Zardushtiylik Turon zamin xalqlarini halol mehnatga undardi. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish, hayvon bolasini o'z bolasidek tarbiyalash va shu yo'sinda fidoiylik qilish odamlarga xos insoniy fazilat ekanligi uqtiriladi. Yer, suv, havo, olov inson uchun shu qadar zarur narsalarki, bularni isrof qilish Zardushtiylik an'analariga ko'ra juda katta gunoh ekanligini ko'rsating.

“Avesto” har bir inson o’zi yaratgan noz-ne’mat hisobiga yashashga odatlanmog’i darkor deb uqtiradi. Bu umuminsoniy qadriyatlar O’rta Osiyo xalqlarining qon-qoniga singib ketganligini isbotlang.

Istiqlol yillarda “Avesto” merosining tiklanishi borasida amalga oshirilgan ishlarga baho bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Anaxita. Ardisura. Atrabon. “Avesto”. Avesto tili. Axriman. Axuramazda. Azaxurra. Azata. Daxyu. Gohlar. Govmard. Karsharvar. Kavi. Mitra. Nmana. Nous. Ostodon. Payg’ambar. Spitama. Vara. Videvdat. Vis. Visparat. Vishtasp. Xanchamana. Xaoma. Xumo. Yasna. Yasht. Zand. Zantu. Zardusht. Zardushtiylik. Chinivot. “Avesto bog’i”.

### **Munozara uchun savollar.**

1. “Avesto” ta’limoti qachon va qanday tarixiy sharoitda yaratilgan?
2. “Avesto” da qanday g’oyalar ilgari surilgan?
3. “Avesto” so’zi qanday ma’noni bildiradi?
4. “Avesto” kitobining aharniyati haqida so‘zlang.
5. Zardushtiylik davrida jamiyatning tarkibiy tuzilishi qanday edi?
6. Zardushtiylik dinida dafn marosimlari qanday bo’lgan?
7. Avesto arxeologiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. Yurtimizda Avestoning 2700 yilligi qacon nishonlandi?

### **3- MAVZU: VATANIMIZ HUDUDIDA VUJUDGA KELGAN DASTLABKI DAVLATLAR.**

#### **Reja:**

1. Davlatchilik tushunchasi, ilk davlatlar paydo bo’lishining asosiy omillari. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya podsholigi.
2. Qadimgi ajdodlarimizning chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari.
3. O’rta Osiyoda antik davr davlatlari. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.
4. Kushonlar sultanati va uning Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan alohida o’rni.

#### **Adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. “Тарихий хотирасиз келажак йўқ”. –Т., “Ўзбекистон”, 1998.
2. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т., “Ўзбекистон”, 2015.
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т., “Шарқ”, 2000. –Б. 27-63.

4. Аскаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т., “Университет”, 2007. –Б. 98-121.
5. Пидаев М. Сирли Кушон салтанати. –Т., “Фан”. 1990.
6. Ражабов Қ., Қандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг мухим саналари. Тўлдирилган бешинчи напри. – Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 22-43.
7. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –Б. 31-88.
8. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
9. Шониёзов К. Қағ давлати ва қангликлар. –Т., “Фан”. 1991.
10. Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи. (Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик). I-жилд. –Т., “Янги аср авлоди”, 2014. –Б. 110-194.
11. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклат) / Маъсул мухаррирлар: Д.Алимова, Э.В. Ртвеладзе. –Т., “Шарқ”, 2001.
12. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. –Т., 2015. –Б. 16-27.

## **1.Davlatchilik tushunchasi, ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya podsholigi.**

Ma'ruza va ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalangan holda davlatchilik tushunchasiga ta'rif bering. Davlatchilik paydo bo'lishining ijtimoiy va arxeologik belgilarinin sanab bering. Davlatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnnini ochib bering.

“Avesto” kitobi, qadimgi yunon va rim tarixchilarasi asarlarda keltirilgan ma'lumotlar orqali Axamoniylar sultanatiga qadar O'rta Osiyoda davlat tuzulmalari bo'lganligini isbotlovchi qanday dalillarni ko'rsata olasiz? Adabiyotlarda uchraydigan “Katta Xorazm” tushunchasi va unga bugungi kundagi yondashuvlarni tahlil qiling. Bu masalani yoritish uchun xorazmshunos olim S.P.Tolstov va uning shogirdlari asarlari shuningdek mustaqillik yillarda paydo bo'lgan yangi qarashlarga tayanib (akademik A.Asqarov, A.Sagdullayev va boshq.) yakuniy xulosa chiqarish kerak.

Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya podsholiklar mavjud bo'lgan davr, ular egallagan hududlar, qoshni davlatlar va xalqlar bilan munosabatlari to'g'risida ma'lumotlarga e'tibor qarating.

## **2. Qadimgi ajdodlarimizning chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari**

Eronda Ahamoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi, sulola vakillarining istilochilik yurishlari va qadimgi sharqning birinchi ulkan sultanatini barpo etish tarixini o'rGANING. Eron podsholarining Turonga yurishlari (Kir II va To'maris, Doro I va Shiroq voqealar) bilan bog'liq qadimgi rivoyat va afsonalar hamda tarixiy haqiqatni ochib bering. O'rta Osiyo xalqlarining ahamoniylar sultanati tarkibiga

kiritilishining salbiy va ijobiy tomonlari hususida mulohazalar yuriting va tarixiy xulosalar chiqaring.

Miloddan avvalgi IV asr o'rtalarida uzoq Yunonistonning shimolida Makedoniya davlatining tashkil topishi, Aleksandr Makedonskiy (Sharqda Iskandar Zulqarnayn)ning taxtga chiqishi, Bolqon yarim oroli va Sharq mamlakatlariga uyushtirgan o'n yillik yurishlari va uning oqibatlarini o'rganing. Iskandar Zulqarnaynning istilochilik yurishlari va ularga qarshi xalq qahramonlik kurashlari haqidagi Abu Rayxon Beruniy va qadimgi yunon-rim tarixchilari bergen ma'lumotlariga asoslanib tarixiy xulosalar chiqaring.

Yunon-makedon istilosini vatanimiz xalqlari tarixida, moddiy va madaniy hayotida qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

### **3.O'rta Osiyoda antik davr davlatlari. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.**

"Antik davr" tushunchasiga aniqlik kiriting. Miloddan avvalgi III asming o'rtalariga kelganda Salavkiylar sultanatining O'rta Osiyodagi mavqeい tushub ketishi sabablari nimada edi? Bu savolga javob berish uchun siz ajdodlarimizning yunon-makedoniyalik bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlarini ma'ruza va adabiyotlardan foydalangan xolda ochib berishingiz kerak.

Yunon-Baqtriya davlati qudrati qaysi davrda kuchayib, nima sababdan inqirozga uchraganligini aniqlang. Yunon-Baqtriya sharqning yirik davlati sifatida 120 yildan ortiq vaqt yashashi davrida uning iqtisodiyoti, madaniyati ravnaqi nima bilan izohlanadi?

Keyingi 30-40 yil ichida bu davrga oid qanday yodgorliklar ochib o'rganilgan. Bu haqda siz Baqtriya Sug'diyona, Marg'iyona hududlarida topib o'rganilgan yodgorliklarni sanab o'ting. Ellinizm madaniyati deganda nimani tushunmoq kerak?

Yunon-Baqtriya davlati bilan bir vaqtida vujudga kelgan Parfiya (Arshakiylar) davlati haqida ma'lumot bering.

Sirdaryoning o'rta oqimlarida hozirgi Toshkent va Sirdaryo viloyatlari hamda Janubiy Qozog'iston yerlarida yashovchi qadimgi shak qabilalarining makedoniyalik Iskandar va keyinchalik Salavkiylarga qarshi kurashlari natijasida miloddan avvalgi III asrda Qang' davlatining tashkil topishi, bu zaminda yashovchi qadimgi sug'diy tilda so'zlashuvchi tub yerli xalqlar bilan turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalarining yaqinlashishlari oqibatida keyinchalik vujudga kelgan yangi etnos "Qang'ar elati", ularning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'mini ko'rsating. Masalani ochib berishda K.Shoniyozovning asaridan unumli foydalaning.

Qadimgi Farg'ona (Davan) podisholigi haqida dastlabki ma'lumotlar va arxeologik tadqiqotlar natijalari nimalardan iborat ekanligini aniqlang.

Miloddan avvalgi V – milodiy IV asrlar oralig'ida qadimgi Xorazmda davlatchilik an'analarini taraqqiyotini o'rganing.

### **3.Kushonlar sultanati va uning Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan alohida o'rni.**

Kushonlar davlati to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar E.V.Rtveladze, Sh.Pidayev asarlarida kengroq berilgan. Adabiyotlardan foydalanib Kushon davlati tashkil topguniga qadar mavjud bo'lgan tarixiy vaziyat, Yuechji qabilalarining Baqtriya hududlariga bostirib kelish sabablarini aniqlang. Gayshuan (Kushon) qabilasining boshlig'i Kudzulla Kadfiz yangi davlat hukumdoriga aylanishi jarayonini aniqlang. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepadan topilgan ashyoviy dalillar, Afg'oniston va Hindistonga qadar cho'zilgan hududlar bosib olingach poytaxtning Peshovorga ko'chirilishiga oid ma'lumotlarni keltiring.

Kushonlar davrida O'rta Osiyo Afg'oniston, Pokiston, Hindiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rin tutganligini ko'rsating.

Kushonlar davrida qadimgi O'rta Osiyo uning iqtisodiyoti, madaniyati, san'ati rivoj topib, san'at va madaniyatda sharqiy, ellincha, hindcha va ko'chmanchi an'analari qorishmasi asosida yangi kushon yo'nalishi tarkib topish jarayonlarini aniqlang.

Bu davr mamlakatlar o'tasida olib borilgan savdo aloqalari Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini misollar bilan isbotlab bering.

O'rta Osiyoda zardushtiylik dini bilan birga buddizmning yoyilishi masalalarini aniqlab bering. Buddizmning davlat diniga aylanishi. Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom va Dalvarzintepada budda ibodatxonalarini vujudga kelganligiga alohida e'tibor bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Davlat. Avesto. Qadimgi Baqtriya podsholigi. Qadimgi Xorazm davlati. Sug'diyona. Marg'iyona. Choch. Saklar va Massagetlar. Ahamoniylar sultanati. To'maris, Shiroq jasorati. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn). Spitamen. Salavkiylar davlati. Antik davr. Ellinlashtirish. Yunon-Baqtriya podsholigi. Parfiya (arshakiylar) davlati. Qang' davlati. Qadimgi Farg'ona (Davan) davlati. Yuechjilar. Kushon davlati. Zardushtiylik. Buddaviylik. Buyuk Ipak Yo'li.

### **Munozara uchun savollar.**

1. O'rta Osiyo sharoitida ilk davlat tuzilmalarining yuzaga kelishi jarayoni qanday tarixiy sharoitlarda kechdi?
2. Qadimgi Xorazmning ilk davlatchilik maqomi to'g'risida nimalar deya olasiz?
3. Qadimgi Baqtriya davlati, uning o'ziga xos hayoti xususida gapirib bering.
4. To'maris afsonasi va Shiroq jasoratining tarixiy ahamiyati haqida gapirib bering.
5. O'rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashlari qaysi tarixiy manbalar orqali bizga yetib kelgan?

6. Salavkiylar davlati qachon tashkil topgan va qaysi hududlarni o‘z ichiga olgan?
7. Yunon-Baqtriya davlati qachon vujudga kelgan?
8. Parfiya davlati qaysi hudulami o‘zichiga olgan?
9. Qang‘ davlati qachon va qaysi hududlarda vujudga kelgan?
10. Davan (Farg‘ona)davlati haqida ma’lumot bering.

#### **4-MAVZU: O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI VA UNING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI.**

##### **Reja:**

1. O‘zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan Vatanimiz hududidagi qadimgi aholi va ularning ijtimoiy madaniy hayoti.
2. O‘zbek xalqining etnik shakllanishida muhim ro‘l o‘ynagan turkiy qavmlar va elatlar.
3. “O‘zbek” atamasining kelib chiqishi va keng yoyilishi masalalari.

##### **Adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т., “Ўзбекистон”, 1998.
2. Аскаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т., “Университет”, 2007.
3. Аскаров А. Ўзбек халқининг келиб чикиш тарихи. –Т., “Ўзбекистон”, 2015.
4. Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. – Т., “Ўқитувчи”, 1994. –Б. 196-211.
5. Иброҳимов А. Биз ким ўзбеклар.... –Т., “Шарқ”, 2011. –Б.63-70.
6. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –В. 282-285.
7. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O‘zbekiston tarixi / Oliy o‘quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o‘quv qo‘llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
8. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Т., “Шарқ”, 2001.
9. Qodirov B., Matyaqubov X. O‘zbekiston tarixidan mavzular bo‘yicha izohli lug‘at. –Т., 2015. –В. 27-36.

##### **1. O‘zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan Vatanimiz hududidagi qadimgi aholi va ularning ijtimoiy madaniy hayoti.**

Ma’ruza matnlari va ko‘rsatilgan adabiyotlardan foydalangan holda qabila, elat, xalq, millat tushunchalarini izohlang. Bu tushunchalarning bir biridan farqi nimada ekanligini aniqlang.

Urug‘ jamosining vujudga kelishi sabablari, urug‘chilikning matriarxat va patriarchat bosqichlari hamda ularning o‘ziga xos jihatlarini ochib bering.

Bir biriga iqtisodiy va etno-madaniy jihatdan yaqin qabilalarning uyushuvi natijasida vujudga kelgan jamoaga elat deb atalishi va bu hodisa kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan xalq bo'lganligini ilmiy isbot qiling.

Miloddan oldingi ming yilliklarda va milodning dastlabki asrlarida O'rta Osiyo mintaqasida istiqomat qilan o'troq ziroatkor aholi (xorazmiylar, sug'diyilar, baqtriyaliklar, chochliklar, marg'iyonaliklar) va ko'chmanchi chorvador qabilalar (sak- massagetlar)ning hududiy joylashuvi hamda ularning qo'shni hududlardagi qabila elatlar bilan etnik assimilyasiya jarayonlarini tahlil qiling.

O'zbek xalqining shakllanish bosqichlari va bu borada tarixchi-etnograf olimlarimiz tomonidan berilgan ilmiy xulosalar qanday? Ushbu masalani yoritishda K.Shoniyofov va A.Assarov asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratting.

## **2.O'zbek xalqining etnik shakllanishida muhim ro'l o'yнagan turkiy qavmlar va elatlar.**

Yu.A.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, A.Assarov va boshqa olimlarning O'zbekiston hududlarida olib borgan arxeologik tadqiqotlari va yozma manbalar asosida O'rta Osyoda dastlabki turkiy etnosning tarqalishi bronza davriga oid ekanligini asoslang. Turkiy migratsiyaning ikkinchi (Yuechji va Xunnlarning kirib kelishi), uchinchi (Xioniylar, Kidariylar, Eftaliylar kelishi) va to'rtinchi bosqichlarining (Buyuk Turk hoqonligi davri) tarixi ahamiyatini yoriting.

IX asrning 40-yillarda Sharqiy Turkiston va Yettisuv hududlarida Qarluqlar davlatining tashkil topishi va X asr o'ttalarida Qarluqlar davlatining davomi sifatida vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi turkiy migrasiyaning beshinchi bosqichini boshlab beradi. Natijada o'zbek xalqining turkiy asosi butunlay shakllanib X asr oxiri XI asr davomida har jihatdan xalq sifatida shakllanganligini bayon qiling.

"Turon", "Eron" va "Turkiston" tarixiy etnogeografik atamalarining mazmun mohiyatini ochib bering.

### **3. "O'zbek" atamasining kelib chiqishi va keng yoyilishi masalalari.**

"O'zbek" etnonimining kelib chiqishi va mohiyati to'g'risidagi olimlarning turli fikrlarini tahlil qiling.

Olimlarning bir guruhi o'zbek etnonimining kelib chiqishini O'zbekxon (1312-1342) nomi bilan bog'laydilar. Ikkinci guruh olimlar O'zbek atamasi Dashti Qipchoqning sharqiy qismida vujudga keldi va bu yerda yashovchi turk-mo'g'ul qabilalarga nisbatan qo'llanilagan deb hisoblaydilar. Uchinchi guruh tadqiqotchilar Dashti Qipchoq aholisi uchun umumiy nom sifatida o'zbek atamasi XIII asr so'nggi choragida ya'ni O'zbekxonidan ilgari vujudga kelgan deb ta'kidlaydilar. Bu borada fikrlaringizni bayon eting.

Movarounnahrga XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklarning kirib kelishi va bu erda siyosiy hokimiyatni egallashlari natijasida bu hududlar aholisiga o'zbek nomining berilishi hozirgi o'zbek xalqi XVI asrda

shakllangan degan noto'g'ri xulosaga bormaslikka diqqatni qarating. Chunki o'zining etnik qiyofasini IX-XI asrlardayoq olgan bugungi o'zbek xalqi XVI asrda faqat etnonimni ya'ni, xalq nomini olgan xolos.

Sovetlar davrida O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi tarixiy madaniy-ma'naviy birlikka raxna solish uchun o'ylab chiqilgan "Panturkizm", "Panislomizm" uydirmalarining tarixiy talqinini bering.

Sovetlar davrida 1924-1925-yillarda o'tkazilgan milliy-hududiy davlat chegaralanishi va undan ko'zlangan asl maqsad nima edi? Siyosiy xaritada "O'zbekiston" atamasining paydo bo'lishi masalalarini yoriting.

Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan "Turkiston umumiy uyimiz" shiori ostida yuritilayotgan siyosatning mohiyati va mazmunini tushuntirib bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Assimiliyatsiya. Demografiya. Ko'chmanchi O'zbeklar davlati. Massagetlar. Mentalitet. Millat. Saklar. Sartlar. Skiflar. Turk. Turkiy qabila-elatlari. Turkiston. Turkistonda milliy-hududiy davlat chegaralanishi. "Turkiston – umumiy uyimiz". Turon, Эрон. Xalq. Xunnlar. Urug'. El, Elat. Etnik jarayonlar. Etnogenez. Etnik tarix. Etnonim. "O'zbek". Qabila.

### **Munozara uchun savollar.**

1. Urug' qanday birlik sanaladi?
2. Qabila deganda nimani tushunasiz?
3. Massagetlar va saklar haqida tarixiy manbalarda qanday fikrlar bildirilgan?
4. Milodning VI-VII asrlarida O'rta Osiyoda sodir bo'lgan etnik jarayonlar haqida nimalarni bilasiz?
5. IX-XII asrlarda O'rta Osiyolik tub aholi tarkibiga qanday etnik guruxlar kelib qo'shildi?
6. O'zbek xalqi qachon shakllandı?
7. XVI asrlarda O'rta Osiyoda yuz bergan etnik jarayonlar haqida so'zlang.
8. Etnogenez nima? Etnonim nima?
9. "Turkiston" atamasi qachon paydo bo'lgan?
10. O'zbek xalqining kelib chiqish jarayononi o'rgangan olimlardan kimlarni bilasiz?
11. 1924-1925-yillarda O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi nima maqsadda amalga oshirilgan edi?
12. "O'zbek" atamasining paydo bo'lishi xususida fanda qanday fikrlar bor?

## **5-MAVZU: ILK O'RTA ASRLAR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI.**

### **Reja:**

1. Yer egaligi munosabatlarining shakllanishi.
2. Xioniyalar, Kidariylar, Eftaliyalar davlati.
3. Turk xoqonligi.
4. Arablar istilosи va hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlari.

### **Adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т., “Шарқ”, 1998.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т., “Шарқ”, 2000. –Б. 64-150.
3. Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. –Т., “Фофур Ғулом”, 1990. –Б. 9-17.
4. Ражабов К., Қандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. Тўлдирилган бешинчи нашри. –Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 44-57.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –Б. 107-164.
6. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
7. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи / Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик. I-жилд (энг қадимги даврдан XIX аср ўрталариғача). –Т., “Янги аср авлоди”, 2014. –Б. 223-264.
8. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклар) / Маъсул мухаррирлар: Д.А. Алимова, Э.В. Ртвеладзе. –Т., “Шарқ”, 2001.
9. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. –Т., 2015. –Б. 37-45.

### **1.Yer egaligi munosabatlarining shakllanishi.**

Rejani yoritishdan oldin o'rta asrlar davri, uning bosqichlari (ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar va so'nggi o'rta asrlar) qaysi asrlarni o'z ichiga olishini aniqlashtirib oling. Yer egaligi (feodal) munosabatlarining vujudga kelish sabablarini qadimgi dunyo tarixidan olgan bilimlaringiz asosida tushuntirinig. Sharqdagi yer egaligi munosabatlarining Garb (Yevropa) mamlakatlaridagi feodal munosabatlardan farqli tomonlarini ko'rsatib bering. “Dehqon” tarixiy atamasining ilk o'rta asrlar va rivojlangan o'rta asrlar jamiyati ijtimoiy tuzumida tutgan o'mini va farqli tomonlarini ko'rsatib o'ting. Bu davrda yangi yerlarning o'zlashtirilishi va sug'orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilikning yanada rivoj topishiga turki bo'lgan tarixiy shart-sharoitlarga e'tibor qaratting.

## **2.Xioniylar, Kidariylar, Eftaliylar davlati.**

O'rta Osiyoning qadimgi tarixiy o'lklalariga (Sug'diyona, Baqtriya, Choch, Farg'ona) shimoldan ko'chmanchi turkiy tilli chorvador qabilalarning kirib kelish yonalishlari, ular kelib o'mashgan tarixiy o'lklarda tashkil topgan ilk o'rta asr davlatlarining siyosiy tarixiga oid ma'lumotlarni korsarilgan adabiyotlardan foydalanib bayon eting. Xioniylar, kidariylar (toxarlar) va eftaliylar davlatining o'zaro va qo'shi davlatlar (Sosoniylar davlati va Vizantiya imperiyasi) bilan bo'lgan munosabatlarini yoriting.

## **3.Turk hoqonligi.**

Turk hoqonligining tashkil topish hududi, turk hoqonlarining Sirdayoning quyi oqimi, Orolbo'y, O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilikka asoslangan madaniy vohalari (Sug'd, Choch, Iloq, Farg'ona, Tohariston)ni egallashi, turklarning Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) bo'ylab Shimoliy Kavkaz orqali Qrim yarim oroli va Shimoliy Qora dengiz bo'ylariga qadar cho'zilgan ulkan hoqonlik tashkil etish bosqichlarini yoriting. Turk hoqonligining Garbiy va Sharqiylar turk hoqonligiga bo'linib ketishi hamda Vatanimiz tarixi bilan uzziy bog'liq bo'lgan G'arbiy turk hoqonligining boshqaruv tizimi, xalq qo'zg'oloni (Obruy), diniy e'tiqodlar, ko'chmanchi va o'troq aholi o'tasidagi ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos tomonlariga e'tibor qarating. Turk hoqonlari O'rta Osiyoning sug'orma dehqonchilikka asoslangan madaniy o'lklalar boshqaruvini nima sababdan mahalliy hukmdorlar (ixshidlar, malikshohlar, buxorxudotlar, xorazmshoxlar, afshinlar) ixtiyorida qoldirganliklarini tarixiy misollar bilan asoslab bering. Rejani yoritishda adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan tarixchi olim Nasimxon Raxmonninh Turk hoqonligi asaridan foydalanish mumkin.

## **4.Arablar istilosи va hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlari.**

Arabiston yarim orolida Arab xalifaligining tashkil topishi, Arab xalifaligidagi sulolalar ("Sahih xalifalar", Ummaviylar va Abbosiylar), ularning istilochilik yurushlari, Eronning egallanishi, "Xorozon" tarixiy geografik atamasining paydo bo'lishi, Xuroson noibi Qutayba ibn Muslimning Amudaryo (Jayxun)dan shimoldagi hududlar (Movarounnahr)ni zabt etish bosqichlari, arablarga qarshi ozodlik kurashlari va xalq qo'zg'oloni (G'urak, Davaشتich, Abu Muslim, Sharik ibn Shayx Almaxriy, Muqanna, Rofi ibn Lays), arablar istilochilik yirishlarining oqibatlari, soliqlar, boshqaruv tizimi, islam dinining targ'iboti va yangi dinning Movarounnahrda keng yoyilishi tarixchi shart-sharoitlarini yoriting.

## **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Dehqon. Feodal munosabatlar. Feodal yer egaligi. Kadivarlar. Kashovarzlar. Chokar. Afrig'ylar. Xioniylar. Kidariylar. Eftallar. Mazdakchilik. Turk. Turkiston.

Turk hoqonligi. Abruy qo'zg'oloni. Arab xalifaligi. Ummaviyalar. Abbosiylar. Qur'on. Arablar istilosи. Mavarounnahr. Soliq siyosati. Muqanna. Islom dini.

### Munozara uchun savollar.

1. O'zbekiston tarixida qaysi davrlar o'rta asrlar davri hisoblanadi?
2. Xion qabilalari va toxarlar qaysi hududlardan kirib kelishgan?
3. Eftaliylar davlati va uning boshqaruvi tizimi qanday tashkil etilgan?
4. Turk hoqonlari (hukmdorlari)dan kimlarni bilasiz?
5. Turk hoqonligida davlat boshqaruvi qanday bo'lgan?
6. Turk hoqonligi davrida madaniy hayat darajasi qanday bo'lgan?
7. Arab xalifaligining tashkil topish tarixini so'zlab bering.
8. Arablarning O'rta Osiyoga yurish qilishidan ko'zlangan maqsadlar nimalardan iborat edi?
9. Arablar bosqiniga qarshi xalq ozodlik harakatlari va ularning yetakchilaridan kimlarni bilasiz?
10. Qur'oni Karim va islom dini haqida nimalarni bilasiz?
11. Arablar istilosи oqibatlarini sanab bering.
12. Arablar hukmronligi davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayat darajasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

### 6-MAVZU: BUYUK IPAK YO'LI VA HOZIRGI ZAMON.

#### Reja:

1. Eng qadimgi yo'llar. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Amir Temur va Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo'li shuxratining yanada ortishi.
3. XVI asrdan Buyuk Ipak yo'li ahamiyatining pasayishi va uning sabablari.
4. Hozirgi davrda Buyuk Ipak yo'li an'analarini tiklash va rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorlik harakatida O'zbekistonning ishtiroki.

#### Adabiyotlar.

1. Каримов И.А. Савдо уйидан Ипак йўлини тиклаш сари (Швецариянинг Алтендорф шаҳрида Ўзбекистон Савдо уйини очиш чоғига сўзланган нутқ. 1995 йил январ.). Асарлар. 2-жилд. –Т, “Ўзбекистон”, 1996. –Б. 366-367.
2. Аскаров А. Ўзбекистон тарихи (энг қадимги даврлардан эрамизнинг V асригача). –Т., “Ўқитувчи”, 1994.
3. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимий йўллари. –Т., “Академия”, 2008. –Б. 110-131.
4. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь (энциклопедический справочник). –Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 1999.

- Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. –Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2007.
- Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –B. 88-93.

## **1.Eng qadimgi yo‘llar. Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.**

Buyuk Ipak yo‘lidan oldin mavjud bo‘lgan qadimiy xalqaro savdo yo‘llari (“La’ yo‘li”, “Shox yo‘li”)ga batafsil to‘xtaling. Bu masala bo‘yicha Buyuk Ipak yo‘lining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi, turli mintaqalarda yashagan urug‘ jamoalari, qabilalar, elatlar, xalqlar va nihoyat ularni hududi, iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashtirgan mamlakatlardan o‘rtasida aloqalarning hayotiy zarurligidan kelib chiqqanligini ko‘rsatib bering. Ilk o‘rta asrlarda sug‘d savdogarlarining Buyuk ipak yo‘lidagi faoliyatlarini yoriting.

Arab xalifaligi, xalifalikdan mustaqil davlatlar (toxiriylar, somoniylar, qoraxoniyilar, g‘aznaviyilar, saljuqiylar, xorazmshohlar saltanati)ning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqida Buyuk Ipak yo‘lining tutgan o‘miga baho bering.

Mo‘gullar istilosigacha bo‘lgan davr oralig‘ida Buyuk Ipak yo‘lida xalqaro savdo-sotiqlik taraqqiyotini yoriting.

## **2.Amir Temur va Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo‘li shuxratining yanada ortishi.**

Mo‘g‘ullar bosqini va hukmonligi davrida Buyuk Ipak yo‘lining O‘rta Osiyo mintaqasini chetlab o‘tishi sabablari nimada ekanligini aniqlang. Nima uchun Amir Temur Yevropa, O‘rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari orqali o‘tadigan jahon savdo yo‘lini o‘z nazoratiga olishni maqsad qilib qo‘yganligiga e’tibor qarating.

Amir Temur Oltin O‘rda orqali o‘tgan shimoliy karvon yo‘lini O‘rta Osiyo shaharlariga burishdan qanday maqsadlarni ko‘zlaganini ochib bering. Savdo karvonlarining Osiyo shaharlari orqali o‘tishi uchun yaratilgan sharoitlarga to‘xtaling.

Movarounnahr shaharlarida savdo va hunarmandchilik rivoji, yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinishi, shahar bilan dehqonchilik vohalari va chorvador ko‘chmanchi aholi o‘rtasida savdo aloqalariga to‘xtaling. Poytaxt Samarcandda savdo va hunarmandchilik rivoji, chet ellardan (Xuroson, Hind va Sind, Xitoy) keltiriladigan mollar xususida ispan elchisi Klavixo keltirgan ma’lumotlarni eslang. Amir Temur va temuriy hukmdorlarning xalqaro savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘rgan chora-tadbirlari Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiqlik va elchilik aloqalari kengayishi hamda Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalarining barqarorligiga olib kelganligini asoslang.

## **3.XVI asrdan Buyuk Ipak yo‘li ahamiyatining pasayishi va uning sabablari.**

Ma’ruza va ko‘rsatilgan adabiyotlardan foydalangan xolda Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy rivojlanishiga to‘siq bo‘lgan ziddiyatlar, xususan ayrim davrlarda davlatlararo

urushlar va ichki ziddiyatlarning savdo yo'li keyingi taqdiriga o'tkazgan ta'sirini sharhlang. XV-XVI asrlarda boshlangan Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida dengiz yo'llarining ochilishi oqibatida Buyuk Ipak yo'li mavqeining pasayishiga olib kelgan tarixiy shart-sharoitlarni tushuntiring.

#### **4.Hozirgi davrda Buyuk Ipak yo'li an'analarini tiklash va rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorlik harakatida O'zbekistonning ishtiroki.**

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida "Buyuk Ipak yo'li" ning insoniyat tarixida insonparvarlik, xalqlarni o'zaro yaqinlashtirish, madaniyatni uyg'unlashtirishdagi tirixiy o'mi tan olinayotganligi sabablarini o'rganing.

XX asr oxirlarida dunyodagi turli mamlakatlarda Ipak yo'li tarixiga qiziqishning ortib borishi sabablarini ohib bering.

YuNESKO rahnamoligida "Buyuk Ipak yo'li" dasturining tuzilishi, uning vazifalari hamda bu dasturni amalga oshirishda O'rta Osiyo davlatlarining, shu jumladan mustaqil O'zbekistonning faol qatnashishi to'g'risida nimalarni misol keltirish mumkun? Bu masalani yoritishda I.A.Karimovning "Savdo uyidan Ipak yo'lini tiklash sari" ma'rzasidan foydalaning.

#### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

La'l yo'li. Badahshon la'li. Shoh yo'li. "G'arbiy meridional yo'l". Buyuk Ipak yo'li. Sima Syan. F.Rixtgofen. Sardoba. Karvonsaroy. Tim, Toq. Buyuk geografik kashfiyotlar. TRASEKA.

#### **Munozara uchun savollar.**

1. Qadimgi savdo-karvon yo'llarifa kimlar, qachon asos solishgan?
2. Qadimiylar "La'l yoli" haqida nimalarni bilasiz?
3. "Shoh yo'li" qachon mavjud bo'lgan va qaysi hududlarni ozaro bo'g'lagan
4. Sharq bilan g'arbnı bog'lovchi savdo-karvon yo'li nima uchun Buyuk ipak yo'li deb atalgan?
5. Kim bu yo'lni "Buyuk ipak yo'li" deb atashni taklif qilgan?
6. "Buyuk ipak yo'li" qayerdan boshlanib qayergacha davom etgan?
7. Buyuk Ipak yo'li Vatanimiz halqlari hayotida qanday o'rın tutgan?
8. Amir Temur va Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo'li shuhrati nima sababdan ortib ketgan?
9. Buyuk geografik kashfiyotlar va uning Buyuk Ipak yo'li taraqqiyotiga ta'siri haqida nimalarni bilasiz?
10. Nima sababdan hozirgi davrda Buyuk Ipak yo'li an'analarini tiklashga O'zbekistonda va butun dunyoda alohida e'tibor berilyapdi?

## **7-MAVZU: MARKAZIY OSIYO XALQLARINING IX-XII ASRLAR DAVRI FAN VA MADANIYATI.**

### **Reja:**

1. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart – sharoitlar va asosiy omillar.
2. Ilm-fan ravnaqi. O'rta Osiyo allomalarining jahon sivilizatsiyasi hazinasiga qo'shgan bebahohissasi.
3. Badiiy adabiyotning rivoj topishi. Eski o'zbek (turkiy) adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlar.
4. O'rta Osiyoda islom madaniyatining tarkib topishi. Buyuk hadisshunos olimilar (Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy va boshqalar).

### **Adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т., “Ўзбекистон”, 1994.
2. Каримов И.А. Илму маърифат зиёси ҳеч қачон сўнмайди. Хоразм Маъмун Академиясининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. Асарлар. 15-жилд. – Т., “Ўзбекистон”, 2006. –Б. 82-96.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., “Ma'naviyat”, 2008.
4. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., “Ўқитувчи”, 1994. –Б. 37-50.
5. Буюк сиймолар, алломалар (1-2 китоб). – Т., Мерос, 1995, 1996.
6. Маънавият ўлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиллар). – Т., А. Кодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001.
7. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т., “Ўзбекистон”, 1997. –Б. 203-250.
8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –В. 220-281.
9. Shamsutdinov R., Maximov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. – Т., “Sharq”, 2013.
10. Ҳожи Исматулоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. – Т., “Шарқ”, 2005.

### **1.IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart-sharoitlar va asosiy omillar.**

Bu reja mazmunini yoritish jarayonida siz IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart sharoitlar va asosiy omillarni aniqlang.

Konspektda arablar istilosidan so'ng Movaraunnahrda islom dinining tarqalishi, islom urf-odatlaring mahalliy udumlar bilan uyg'unlashuvni jarayonini yoriting.

Kuchli markazlashgan davlat tuzishda, islomning jahon dinlaridan biriga aylanishida “Qur’oni Karim” ning o’rni va rolini ochib bering. Arablar O’rtal Osiyon istilo qilganidan so’ng bu yerda o’zlariga qaraganda ancha yuqori darajada turgan moddiy va ma’naviy madaniyatga, yuqori turmush darajasiga duch kelganligi sababli mahalliy xalqlarning ilg’or madaniyati, urf-odatlari, an’alarini qabul qilgani va mahalliy xalqlar bilan singib ketganligini tushuntiring.

Islomning muqaddas kitobi Qur’oni Karim odamlarni hurlik, ozodlik, tenglik, yaxshilik, sahiylik hamda birodarlik, qardoshlikka da’vat etuvchi g’oyalari O’rtal Osiyo xalqlarining ongi va shuuriga ham asta-sekin singib borishi hamda islom qadriyatlar xalq ma’naviy hayotining uzbek qismi sifatida ularning turmush tarzida, hatti-harakatlarida munosib o’rin olib borishini ochib bering.

Arablar istilosidan keyin O’rtal Osiyoda feodal munosabatlarning ravnaqi. Sinfiy ziddiyatlarning kuchayib borishi natijasida yirik feodallar mavqeい kuchayishi va xalifalikdan mustaqil sulolalar (Toxiriylar, Somoniylar)ning hokimiyat tepasiga kelishini ko’rsating.

## **2.Ilm-fan ravnaqi. O’rtal Osiyo allomalarining jahon sivilizatsiyasi hazinasiga qo’shgan beba ho hissasi.**

Arab xalifaligidan mustaqil davlatlarning tashkil topishi siyosiy barqarorlik va iqtisidiy farovonlik, madaniy hayotning ravnaqiga, fan kashfiyotlarining yaratilishiga imkon bergenligiga e’tibor qarating.

O’rtal Osiyoda IX-XII asrlar mobaynida fan va madaniyat bobida erishilgan ulkan yutuqlar, fan kashfiyotlari va tadqiqotlarini qayd etgan holda o’tmish ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi hazinasiga qo’shgan beba ho hissalarini isbotlab bering. Ahmad al-Farg’oni, Muhammad al-Xorazimi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobi, Muhammad Narshahi, Abdulqosim Firdavsiy, Rudakiy singari daho siymolarimizning o’lmas ijodiy merosidan Sharq va G’arb xalqlari necha asrlardan beri bahramand bo’lib kelayotganligi va bu hozirgi avlodlar uchun ham g’oyatda ulkan moddiy va ma’naviy ozuqa berishi haqida batafsil to’xtaling.

## **3.Badiiy adabiyotning rivoj topishi. Eski o’zbek (turkiy) adabiyot rivojiga katta hissa qo’shgan mutafakkirlar.**

O’rganilayotgan davrda ilm-fan ravnaqi bilan birga mahalliy aholining ma’naviy hayotida o’z ona tilida, unda yozilgan tarixiy va adabiy asarlarga bo’lgan ehtiyoji ham ortib borishi arab tilidagi asarlarga bilan bir qatorda fors-tojik, turkiy tillardagi asarlarning vujudga kela boshlash jarayonini yoriting.

Movaraunnahr, Shosh, Farg’ona, Yetisuv va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimgandan davom etib kelayotgan og’zaki adabiyoti bilan bir qatorda, yozma adabiyotining yuzaga kelganligini aks ettiring.

Bu borada Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilig” asari mazmunini tahlil qiling. Shoir mutafakkirlardan Mahmud Qoshgariy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy va hatto Alisher Navoiylarning turkiy tilda ijod gilishlarining sabablarini ko’rsating.

Bu davrda turkiy adabiy tillar, xususan, eski o'zbek va uyg'ur tillarining vujudga kelishida ham muhim bosqich bo'lganligini alohida ko'rsating. Turkiy tillarning qorishib o'g'uz, chigil, qipchoq, uyg'ur tili guruhlari yuzaga kelganligini qayd qilib o'ting.

Qarluq-chigil tillari negizida esa o'zbek adabiy tili vujudga kelganligi turkiy tillarning ravnaqida mahalliy aholi o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalarning, hamda yozma adabiyotlarning rolini ko'rsatib o'ting.

#### **4.O'rta Osiyoda islom madaniyatining tarkib topishi. Buyuk hadisshunos olimlar (Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy va boshqalar).**

Bu masala bo'yicha seminarga tayyorgarlik ko'rganda tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalangan holda XI-XII asrlar madaniy hayotida islom dini muhum ro'l o'ynaganligini va bu davrda islom dini jahon dini darajasiga ko'tarilganligini konsepttda alohida ko'rsating.

Nima sababdan mahalliy xalqlar islom dini, arab tili va yozuvining zo'r lab kiritilishiga qaramay bu yerda (arablardan ham yaxshiroq) islom dinini, arab yozuvini tez o'zlashtirib oldi? Islom ta'limoti va islom huquqshunosligining rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarimizdan imom al-Buxoriy, imom at-Termiziyy, Moturudiyy, Burxoniddin Marg'iloni kabi aqoid ulamolarimizning ijodlarini alohida to'xtaling.

Samoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida ilm ahli va islom ta'limotiga e'tibor va homiylikning kuchayishini tarixiy ma'lumotlar asosida yoriting.

#### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Renessans. «Sharq Uyg'onishi». «Bayt ul-hikma». «Ma'mun akademiyasi». Qur'oni Karim. Hadis. Shariat. Fiqh. "Algoritm". "Alfraganus". "Avetsena". "Muallim us-Soniyy". "Arab va g'ayri arablar ustozi", Hadisshunoslik. Tasavvuf ta'limoti. Me'morchilik. Maqbara, minora, masjid, madrasa.

#### **Munozara uchun savollar.**

1. "Uyg'onish davri" deganda nimani tushunasiz?
2. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri qachon sodir bo'lgan?
3. IX-XII asrlarda yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishiga qanday tarixiy shart-sharoitlar va omillar ta'sir ko'rsatgan?
4. Jahon fani va sivilizatsiyasi ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan O'rta Osiyolik allomalardan kimlarni bilasiz?
5. Turkiy adabiyot rivojiga xissa qo'shgan buyuk adiblar ijodi to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Imom Buxoriy va Imom at-Termiziylarning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlarini gapirib bering.
7. Madaniy taraqqiyotning muhim omillari nimada deb o'ylaysiz?
8. Sharq olamining aniq fanlar bo'yicha daholaridan kimlarni bilasiz?

9. "Nur Sharqdan" iborasini siz qanday tushuntirasiz?
10. Islom madaniyat va ma'naviyatining rivojiga O'rta Osiyo allomalarining hissasi qay darajada bo'lgan?
11. Hadis, fiqx ilmi allomalaridan kimlarni bilasiz?
12. Tasavvuf – so'fiylik ta'limotlari va tariqatlari haqidagi tushuncha bering.
13. IX-XII asrlarda me'morchilik, qurilish va san'at ravnaqi xususida nimalar bilasiz?

## **8-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY, MADANIY HAYOT.**

### **Reja:**

1. XIV – asrning ikkinchi yarmi va XV asrda siyosiy hayot. Movarounnahr va Xurosonda moddiy madaniyat ravnaqi.
2. Temuriylar davrida ilm-fan. Ulugbekning ilmiy maktabi.
3. Hattotlik, tasviriy san'at va musaqa madaniyat.
4. Badiiy adabiyot. Alisher Navoiy ijodiy merosi.

### **Adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Амир Темур давридаги бунёдкорлик ва ҳамкорлик руҳи бизга намуна бўлаверсин. Асарлар. 4-жилд. –Т., “Ўзбекистон”, 1996. –Б. 340-343.
2. Каримов И.А. Амир Темур – фахримиз, гуруримиз. Асарлар. 5-жилд. –Т., “Ўзбекистон”, 1997. –Б. 181-191.
3. Азamat Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т., ”Шарқ”, 2000. –Б. 151-233.
4. Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур. –Т., 1996.
5. Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. –Т., “Ўқитувчи”, 1994. –Б. 426-428.
6. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т., “Юлдузча”, 1989.
7. Ибн Арабшоҳ Амир Темур тарихи. 1-2 жиллар. –Т., “Мехнат”, 1992.
8. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. –Т., “Хазина”, 1994.
9. Люсен Кереи. Амир Темур салтанати. –Т., “Маънавият”. 1999.
10. Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. –Т., “Фан”, 1993.
11. Илизомиддин Шомий. Зафарнома. –Т., “Ўзбекистон”, 1996.
12. Темур тузуклари. –Т., “Ўзбекистон”, 2015.
13. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –Б. 338-489.
14. Shamsutdinov R., Maximudov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
15. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. –Т., “Шарқ”, 1997.

## **I.XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda siyosiy hayot. Movarounnahr va Xurosonda moddiy madaniyat ravnaqi.**

Mo'g'ullar hukmronligi davrida Movarounnahr xalqining iqtisodiy ahvoli og'irlashib qolganligi, toxtovsiz urushlar dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqlik ishlari izdan chiqib, aholining turmush darajasi og'irlashib qolganligini isbotlang.

Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilgach, moddiy madaniyatning ravnaqi uchun barcha tadbirlarning amalgaga oshirilganligiga e'tibor bering. Movarounnahr va Xursonda obodonlashtirishga qaratilgan tadbir haqida, qurilgan ulkan inshootlar haqida s o'z yuriting.

Ma'ruza materallari, darslikning ko'rsatilgan bo'limlarini konspekt qilayotgan vaqtida Temir va temuriylar davrida moddiy madaniyat ravnaqi uchun amalgaga oshirilgan tadbirlar, bunda Movarounnahr va Xursonda mustaqil davlatning kelajak taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy hayotida barqaror kuchli davlat bo'lishi uchun mamlakatda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqlik va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib bergenligini ko'rsating.

### **2.Temuriylar davrida ilm-fan. Ulug'bekning ilmiy maktabi.**

Berilgan adabiyotlardan foydalangan xolda Temur va Temuriylar davrida ilm-fanga katta e'tibor berilib, bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini isbotlang.

Shoir, musiqachi, olim va me'morlarga alohida e'tibor qaratilganligi, ularning ijod qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganligini ko'rsating.

Amir Temuring ilm-fanga e'tibor bergenligining natijasi Temuriylar sulolasining keyingi vorislari davrida ham o'z mahsulini bergenligiga Shohruh, Mirzo Ulug'bek, Mironshoh, Boysunqur Mirzo, Husayin Bayqaro va Zahiriddin Muhammad Bobur timsolida misollar keltiring.

Temuriylar orasida Ulug'bek faoliyatining o'ziga xos jihatlaridan biri uning Samarqandda yaratgan ilmiy maktabi jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissa ekanligini ochib bering. Ulug'bek yaratgan "Ziji Ko'ragoniy" asarining keyingi asarda Evropaning turli mamlakatlariiga tarqalishiga e'tibor qarting. Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi va uning nabirasi Mirak Chalabiy va evarasi Mahmud Chalabiy shuningdek, Samarqand akademiyasining namoyondalari faoliyatiga batafsil to'xtaling.

### **3.Hattotlik, tasviriy san'at va musaqa madaniyati.**

Temur va Temuriylar davrida Samarqand va Xirotda me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at, adabiyot va musiqa madaniyati nihoyat darajada taraqqiy etganligini ko'rsating. Ayniqsa, me'morchilik bilan birgalikda tasviriy san'at ulkan muvaffaqiyatlarga erishganligi, Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Xoji Muhammad Naqqosh va Shohmuzaffar kabi mo'yqalam sohiblari ijodlari. Movarounnahr va Xuroson tasviriy san'atining o'ziga xos uslubiy, musavvirlar ijodining hayoliy mavhumlikka, realistik tasvirga tomon rivojlanib

borganligini, bu borada Behzod asos solgan Xirot musavvirlik maktabi. Suratlar xayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlagan tasvirlarni ta'riflab bering.

Musiqa sohasida erishilgan yutuqlar: Ulug'bek, Navoiy, Jomiy va Binoiy kabi mutafakkir va shoirlarning musiqa sohasida yaratgan nazariy asarlar, Abdurahmon Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Xusayin Udiy, Qosim Robboniy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Xo'ja Yusuf Andijoniy, Ustoz Shodiy, Najmaddin Kavbakiy kabi mahoratlari sozandalar bastakorlar va hofizlar faoliyati orqali nodir va bebaho san'at asarlari vujudga kelganligini tushuntiring. Bu davrga kelib kitob san'ati bilan bog'liq bo'lgan hattotlik musavvirlik san'ati taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilganligiga e'tibor qarating.

Mashhur hattot Mir Ali Tabriziy (1330-1404) tomonidan yaratilgan nasta'liq uslubi, "Xatti Xirotiy" deb shuhrat topgan uslub xattotlik san'atining cho'qqisi ekanligi Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Xodjon, Mir Ali Qilqalam, Halvoiy, Rafiqiy ijodlari, Samarqand va Xirotda maxsus saroy kutubxonalarining tashkil etilganligi, qo'lyozma asarlarini toplash, nusxalar ko'chirish, turli manzarali rangbarang tasvir va naqshinkor lavhalar bilan asarlarni bezatish, hamda muqovalash kabi kitobsozlik san'atining kuchayib ketganligini tushuntiring.

#### **4.Badiiy adabiyot. Alisher Navoiy ijodiy merosi.**

O'rganilayotgan davr O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti tarixida sermahsul davr bo'lib, badiiy uslub jihatdan takomillashib, ko'plab nodir badiiy, lirk asarlar yaratilganligi zamonasining etuk shoirlari va adiblari Qutb, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazimi, Durbek, Amiri, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih va boshqalarning asarlari shu davr badiiy adabiyoti durdonalari ekanligini ta'kidlang. Bu davr o'zbek shoirlari ichida Lutfiy va Navoiy asarlarida adolat, haqiqat, muruvvatli bo'lish targ'ib etilganligi, lirk shoirlar Sa'diy, Hofiz va kamol Xo'jandi ijodlari. Abduraxmon Jomiy Navoiyning zamondoshi, ustozi va do'sti ekanligi.

Buyuk shoir, olim, mutafakkir Alisher Navoiy e'tiborini o'z asarlarida xalq osoyishtalariga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga ilm -fan san'at va adabiyot taraqqiyotga bag'ishlaganligi to'g'risida. Uning "Hamsa" asari jahon hazinasining durdonasi ekanligini ta'kidlang.

Alisher Navoiy etuk ahloq, ma'rifatli va adolatlari jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezoni deb gummanistik ideallarga muvofiqlikni tushunganligini uning asarlari orqali isbotlang.

#### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Siyosiy tarqoqlik. Amir Timur. Amir. Markazlashgan davlat. Amir Temur harbiy yurishlari. Anqara jangi. Amir Temur sultanati. Sohibqiron. "Temur Tuzuklari". "Yevropaning xoloskorii". Temuriylar. Shoxruh Mirzo. Mirzo Ulug'bek. Absorvatoriya. "Ulug'bek akademiyasi". Movarounnahr temuriylari. Xuroson temuriylari. Abdurahmon Jomiy. Lutfiy. Xusayin Bayqaro. Alisher Navoiy.

Kamoliddin Behzod, Temuriylar sultanatining tanazzuli. Xirot adabiy muhiti. Temuriylar me'morchiligi.

### **Munozara uchun savollar.**

1. Amir Temur shaxsini ta'riflab bering.
2. Amir Temur qanday vaziyatda siyosiy kurash maydoniga kirib keldi?
3. Amir Temurning buyuk tarixiy xizmatlari nimada?
4. Amir Temurni harbiy sarkarda sifatida ta'riflab bering.
5. Qanday omillar Amir Temur va temuriylar davri moddiy va ma'naviy madaniyatining ravnaqini ta'minlagan?
6. Temuriylar davrida bunyod etilgan moddiy madaniyat namunalari qatoriga nimalarni kiritish mumkin?
7. Ulug'bek akademiyasining yutug'i va yuksak shuhratini asoslab bering.
8. Temuriylar davrida tarixshunoslik fani erishgan muhim yutug'lari to'g'risida ma'lumot bering.
9. Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy va musiqa san'ati ravnaqi to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi ekanligini isbotlab bering.

### **9-MAVZU: O'ZBEK XONLIKLARI DAVRIDA IJTIMOIY-SIYOSIY PAROKANDALIK SABABLARI VA UNING OQIBATLARI.**

#### **Reja:**

1. Buxoro xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi. Davlat tuzumi, xo'jalik va madaniy hayot.
2. Xiva xonligining tashkil topishi. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
3. Qo'qon xonligi. Ijtimoiy ahvol. Madaniy hayot.
4. Xonliklarning o'zaro munosabatlari hamda ichki ziddiyatlarning keskinlashib borishi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Абулғози Баходирхон. Шажараи турк. – Т., “Чўлпон”, 1992. –Б. 114-188.
2. Азamat Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., “Шарқ”, 1999. –Б. 234-302.
3. Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоклар. – Т., “Ўқитувчи”, 1994. –Б. 24-36., 59-104., 184-194., 400., 405.
4. Бобобеков Ҳ. Кўкон тарихи. – Т., 1994.
5. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., “Юлдузча”, 1989.

6. Иброхимов А. Бизким ўзбеклар ... - Т., “Шарқ”, 2011. -Б. 235-240.
7. Мукминова Р.Г. ва бошк. Ўзбекистон тарихи. – Т., “Ўқитувчи”, 1994.
8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Ikkinci kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. -Б. 11-143.
9. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. -Т., “Sharq”, 2013. -Б. 246-320.
10. Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи. (Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик). 1-жилд. –Т., “Янги аср авлоди”, 2014. -Б. 472-607.
11. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. -Т., 2015. -Б. 75-88.

### **1.Buxoro xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi. Davlat tuzumi, xo'jalik va madaniy hayot.**

Kо'rsatilgan adabiyotlar va ma'ruza matnlari orqali XV asrning oxirlariga kelganda Hindiston va Movarunnahrda hukmronlik qilayotgan Temuriy hukumдорлар o'rтasida siyosiy birlik va barqarorlikka darz ketganligi, pirovard natijada mamlakat xo'jalik-iqtisodiy ahvolning tushkunligiga sabab bo'lganligini asoslang.

Bo'riboy Ahmedov asarlaridan foydalangan xolda Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyatga ahamiyat qaratib, Ko'chmanchi O'zbeklar davlatining tashkil topishi va keyingi tarixiga e'tibor qarating.

Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrga yurishlari, Zahiriddin Muhammad Boburning Shayboniyxon bilan to'qnashuvlari va uning oqibatlari, Boburning davlat arbobi, olim sifatida jahon tarixida tutgan o'mniga "Boburnoma" asari asosida tarixiy baho bering.

Temuriylar mulklarining shayboniylar tomonidan bosib olinishi va hukmronligining o'matilishi, davlatning rasman Buxoro xonligi deb yuritila boshlanishi, Shayboniylar sulolasining boshqaruв tizimi mamlakatning sultonlar va beklarga bo'lib berilishi oqibatida amaldor va beklar mavqeining kuchayishi, markaziy davlat hokimiyatining zaflashuvi sabablariga diqqatni qarating.

Buxoro xonligida Ashtarkoniylar (Joniyilar) sulolasining hokimiyatga kelishi, yangi sulola davrida xonlikning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ahvoli, agrar munosabatlari va suv inshootlarining qurilishi, shahar xo'jaligi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo munosabatlari, pul muomalasi soliq siyosati va mamlakatda xalq norozlik harakatlarining sabablarini kengroq yoriting.

Mamlakatdagи ichki sulolaviy kurashlar va tarqoqlikning kuchayishi natijasida markazlashuv an'analarining izdan chiqib Farg'onada mustaqil Qo'qon xonligining tashkil topishi, Eron shohi Nodirshohning Buxoro xonligida bosqinchilik yurishlarini va uning siyosiy oqibatlariga diqqatni qarating.

Shayboniylar va Ashtarkoniylar davrida hukmdorlar nima uchun "xon" mansabi bilan yuritilganligini tushuntiring.

Buxoro amirligi tarixini yoritishda quyidagi tarixiy jarayonlarga asosiy diqqatni qarating: Buxoro xonligida hokimiyatning mang'itlar sulolasiga o'tishi va xonlikning

Buxoro amirligi deb yuritila boshlanishi. Mang'itlar davrida Buxoro amirlarining ijtimoiy va davlat tuzumi, qishloq xo'jaligi ahvoli, savdo sotiq va hunarmandchilikning ahvoli.

Ma'muriyatçilik, zo'ravonlik va o'zboshimchalikning kuchayishi, mamlakat iqtisodiyotining tushkunlikka yuz tutushi, qashshoqlik, Buxoro va Xiva o'rtasidagi o'zaro urushlar va ularning oqibatlari faqat xalq uchun qimmatga tushganligini tarixiy misollar yordamida asoslang. (Marv, Miyonqal'a qo'zg'oloni)

Masalani yoritish jarayonida Buxoro xonligida XVI-XIX asming birinchi yarmi davomida iqtisodiy yuksalish va inqirozlar, siyosiy ixtiloflar mamlakatdagi ko'ping yillik tarixiy ildizga ega bo'lgan xalq madaniyatining davomiyligiga to'siq bo'la olmaganligini ta'kidlang. Xalq madaniyati, adabiyoti, tarixi, fan va san'ati yangi durdona asarlar bilan boyidi. Jamiyatning nafaqat yuqori tabaqa vakillari balki hunarmandlar, ayniqsa oddiy fuqaro vakillari ham bu asarlarning mualliflari bo'lganliklari misoldida xalq madaniyati hamisha bardavomligini ko'rsating.

Buxoro islam va ma'rifat markazi darajasiga ko'tarilishi, ilohiyot ilmi, arab tili, notiqlik san'ati, aljabr, tarix ilmi (Binoiy "Shayboniy nomma", Mir Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanova", Abduraxmon Tele' "Tarixi Abdulfayizzon", Doniyor Buxoriy "Gulshan ul-muluk", Mirzo Haydar "Tarixi Rashidiy", Fazlulloh Ruzbehon "Mehmonnomaiy Buxoro"), abadiy hayot (Sayido Nasafiy, Turdi Farog'iy, Mirzo Bedil, Vola, Junaydulloh Xoziq,) va me'morchilik (Mir Arab, Modarixon, Abdullaxon, Ko'kaldosh, Sherdor, Tillakori, Devonbegi madrasilar), shaharsozlikning rivojini alohida qayd qiling.

## **2.Xiva xonligining tashkil topishi. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.**

Ko'rib chiqiladigan masalani kengroq yoritish uchun O'zbekiston tarixi (Muqminova R.G. 86-93 betlar.) O'zbekiston xalqlari tarixi (Asqarov tah. 25-31, 70-72 betlar) va Istoriya Uzbekistana tom-III. (str. 249-316) darslik va qo'llanmalardan foydalinish mumkun. Unda siz ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahr hududlariga kirib kelishi Xorazmda ham siyosiy hamda sotsial-iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirib yuborganligiga, Xorazmda ham Shayboniy ko'chmanchi o'zbeklar sulolasining hokimiyatga kelishi va siyosiy hokimiyatni XVIII asning oxiriga qadar saqlab qolishlariga e'tibor qarating.

Xiva xonligida Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyatga kelish sabablari va uning oqibatlarini yoriting.

Quyi Amudaryo Qoraqalpoqlarining XVII asrgacha bo'lgan siyosiy tarixi, XVIII- asr oxiri XIX asr boshlarida, xususan Muhammad Raximxon I davrida (1810-1811 yillar) qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga bo'yundurilishi jarayoniga diqqatni qarating. Qoraqalpoq xalqi tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, ularning Xiva xonligiga bo'yundurilganidan keyingi ijtimoiy tuzumi. Qoraqalpoq xalqining feodal zulmga qarshi va ozodlik uchun 1827, 1855-1856 yillardagi kurashlari tarixi va uning oqibatlariga alohida to'xtalib o'ting.

XVI-XIX asrlar birinchi yarmi davomida Xorazm-Xiva xonligining hududi, aholisining ijtimoiy tarkibi, qishloq va suv xo'jaligi, yer egaligi va mulk shakllari,

hunarmandchilik taraqqiyoti, savdo - pul munosabatlaridagi o'ziga xoslik tomonlariga e'tibor qarating.

Xiva xonligi davrida ham oldingi davr Xorazm ilm-fani va adabiyotiga vorisiylik an'analari davom etganligini Abdulg'ozi Bahodirxon ("Shajrai turk", "Shajara tarokima") Munis Xorazmiy ("Devon", "Arnalar", "Munis ul-ushshoq", "Firdavs ul-iqbol") va Muhammad Rizo Ogahiy ("Ta'viz ul-ushshoq", "Riyoz ud-davla", "Gulshani davlat", "Zubdat ut-tavorix") adabiy tarixiy meroslari misolida e'tirof eting.

### **3.Qo'qon xonligi. Ijtimoiy ahvol. Madaniy hayot.**

Qo'qon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixiga oid ma'lumotlarni "Qo'qon tarixi" (H.Bobobekov) va Istorija Uzbekistana (tom-III, str. 205-213) adabiyotlardan batafsil yig'ish mumkun. Unda siz XVIII asrga kelganda Farg'ona vodisidagi ahvol, o'zbeklarning ming urug'idan bo'lgan Shohruhbiy (1709-1721) tomonidan Qo'qon xonligiga asos solinishi, Norbo'tabek davrida (1763-1798) xonlikda siyosiy-iqtisodiy barqarorlikning o'matilishi, Umarxon (1810-1822) va Muhammad Alixonlar davrida (1822-1842) xonlik hududlarining kengaytirilishi, Buxoro amiri Nasrullo bilan Qo'qon xonligi o'rtaсидаги xunrezlik urushlari va uning oqibatlarga asosiy e'tiborni qarating.

Farg'ona vodisining tabiiy-hududiy o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan Qo'qon xonligi ijtimoiy – iqtisodiy hayoti, yer egaligi va soliq majburiyat shakkllari, xalq norozilik harakatlari (Toshkent qo'zg'oloni, Qipchoqlar qo'zg'oloni) ning mohiyati va harakatlanlantiruvchi kuchlarini qayd qilib o'ting.

Qo'qon xonligi nafaqat siyosiy tarix balki, ilm-ma'rifat, san'at va adabiyot jahbalarida ham o'zbek xalqi tarixida o'ziga xos o'rin egallagan madaniyat o'choqlaridan biri edi. Amir Umarxon davri "Qo'qon adabiy muhiti" ning vujudga kelishi, uning tarixiy ildizlari Boborihim Mashrab, Gulshaniy, Yoriy, Zavqiy, Zoriy, Nozil, Majhub, G'oziy, Uvaysiy va Nodirabegimlar ijodiga to'xtaling.

Qo'qonda xattotlik sanati va me'morchilik ham rivojlangan. Kitoblar shunday did bilan ko'chirilganki, xorijiy mamlakatlar shohlari uchun elichilarga ana shunday nafis ko'chirilgan kitoblarni tortiq qilish xonlikda odatga aylanganini ta'kidlang.

XIX asrda Qo'qon shahrining me'moriy ko'rinishi hukmdorlar tashabbusi sabab ulug'vorlik kasb etganligini keng qurilishlar (Norbo'tabek, Norbo'tabiy, Mingoyim madrasalari, Xudoyorxon O'rdasi va boshq.) misolida ko'rsatib o'ting.

### **4.Xonliklarning o'zaro munosabatlari hamda ichki ziddiyatlarning keskinlashib borishi.**

Ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalangan xolda xonliklar o'rtaсидаги hududiy-territorial hamda hokimiyat uchun kurashlar mamlakat taraqqiyotiga zarar etkazib, xo'jalik va madaniyat ravnaqiga salbiy ta'sir qilgani, bu esa tashqi kuchlar tajovvuzini kuchaytirganini yoriting. Siyosiy tarqoqlikning sabablarini ochishga harakat qiling.

## **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Boburiylar. Shayboniyalar. Ashtarkoniylar. Mang'itlar sulolasi. Buxoro Amirligi. Xorazm shayboniyalar sulolasi. Qo'ng'irotlar sulolasi. Minglar sulolasi. Safaviylar. Amlok. Afanak puli. Bek. Biy. Vaqf yerlari. Devonbegi. Inoq. Ixrojot. Ko'kaldosh. Mehtar. Muxtasisib. Miroxur. Shayxulislom.

## **Munozara uchun savollar.**

1. Buxoro xonligi qachon tashkil topgan?
2. Abdullaxon II davrida Buxoro xonliginining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. Ashtarkoniylar Buxoro xonligida hokimiyatni qachon qo'lga kiritdilar?
4. Qachon va nima uchun Buxoro xonligi amirlik deb ataladigan bo'ldi?
5. Buxoro tarixiga doir qanday asarlar yozilgan?
6. Xiva xonligi qanday muhitda, qachon tashkil topdi?
7. Qo'qon xonligining tashkil topish tarixini, hokimiyatni qanday sulola boshqarganini bilasizmi?
8. Xiva, Qo'qon xonliklari tarixiga doir qanday asarlar yozilgan?
9. XVI-XIX asrlarda barpo etilgan tarixiy me'moriy yodgorliklarni bilasizmi?
10. Xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi qaloqliklarning sabablarini bilasizmi?
11. Xonliklar o'rta sidagi o'zaro kurash qanday oqibatlarga olib keldi?

## **10-MAVZU: ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKASINI BOSIB OLISHI VA MUSTAMLAKACHILIKA QARSHI MILLIY-OZODLIK KURASHLARI.**

### **Reja:**

1. O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi.
2. Rossiya imperiyasining o'lkada yuritgan mustamlakachilik siyosati va ma'muriy boshqaruvi tizimi.
3. Turkiston xalqlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari.

### **Adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – T., "Ma'nnaviyat", 2008.
2. Зиёев Х. Туркистанда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. –Т., "Шарқ", 1998.

- Ражабов К., Қандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихини саналари. Тўлдирилган бешинчи нашри. – Т., “Ўзбекистон”, 2011. – 130-144.
- Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи эшон фожиаси. – Т., “Чўлпон”, 1992.
- Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Ikkinchı kitob (qayta mohangovan ikkinchi nashri). – Т., “Sharq”, 2010. – В. 149-270.
- Shamsutdinov R., Maximov X. O’zbekiston tarixi / Olyi o’quv yuritishining notarix fakultetlari uchun o’quv qo’llanma. – Т., “Sharq”, 2013.
- Эгамиазаров А. Сиз билган Дукчи Эшон. – Т., “Шарқ”, 1994.
- Ўзбекистон тарихи / Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик II жилд (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил июнь). Масъул мухаррир РХ Муртазаева. – Т., “Янги аср авлоди”, 2015. – Б. 6-232.
- Ўзбекистоннинг янги тарихи. I-китоб. Туркистон чор Россияси mustamlakachiligi даврида. – Т., “Шарқ”, 2000.

## **1.O’rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi.**

XIX asrning o’rtalarida xonliklardagi umumiyligi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga e’tibor qarating. O’rta Osiyo mintaqasidagi xalqaro vaziyat, sharqni egallash barasidagi ingliz-rus raqobati va bu borada xonliklar hukmdorlarining tutgan yo’liga baho bering. Rossiya imperiyasi qoshinlarining Qo’qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlari bosqichlari, harbiy mag’lubiyatimiz, Buxoro amiri va Xiva xonligi ustidan Rossiya protektoratinig o’matilishi, Qo’qon xonligining tugatilishi sabablarini tarixiy misollar orqali yoriting.

Vatan ozodligi uchun kurashgan Mulla Aliquli (Mulla Alimqul), Bobon to’qsoba, Abdumalik to’ra, Yoqubbek, Bobobek va Jo’rabek kabi xalq qahramonlarining faoliyatlariga baho bering.

Xonliklardan bosib olingan hududlarda dastlab Rossiya imperiyasiga qarashli Turkiston viloyati, keyinchalik Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi va uning yildan yilga kengayib borishi, ma’muriy-hududiy tuzilishi, Turkiston general-gubernatorlari va ularga berilgan vakolatlar, Buxoro va Xiva bilan munosabatlarning o’ziga xos jihatlariga e’tibor qarating.

## **2.Rossiya imperiyasining o’lkada yuritgan mustamlakachilik siyosati va ma’muriy boshqaruvi tizimi.**

1865-yilda qabul qilingan «Turkiston viloyatini boshqarish to’g’risidagi Muvaqqat Nizom», «Harbiy-xalq boshqaruvi» tartibining mazmun-mohiyati, 1886-yilgi «Turkiston o’lkasini idora qilish to’g’risidagi Nizom»ning qabul qilinishidan ko’zlangan maqsadlar, Rossiya imperiyasining Turkistonda yer-suv, sudlov va boshqaruvi tizimiga oid o’tkazgan islohotlari hamda ularning salbiy oqibatlari, mustamlakachilik boshqaruvning xususiyatlari, ko’chirish siyosati (“Turkiston ruslar uchun” shiori ostida o’tkazilgan siyosat), Turkiston o’lkasi iqtisodiyotining Rossiya imperiyasi manfaatlari bo’sundirilishi masalalarini batafsil yoriting.

Rossiya imperiyasi yuritgan ulug' davlatchilik va mustamlakachilik siyosati oqibatida O'rta Osiyo xalqlari hayoti va turmushida muhim ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar yuzaga kelganligi, hamda mustamlakachilar yurgizgan shovinistik va zo'ravonlik siyosati o'lka hayotida chuqr salbiy iz qoldirganligini yoriting.

Mahalliy millat mehnatkashlarining ikki yoqlama ayovsiz zulm va ekspluatasiya qilinishi esa ularni har tomonlhma horlik va zorlikka, nochorlikka va tobelikka mahkum etganligini, paxta yakkahokimligining boshlanishi, mamlakat Rossianing xom ashyo bazasiga aylantirilganligini faktlar asosida tahlil eting.

### **3.Turkiston xalqlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari.**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi tarixiy shart-sharoit, musamlakachiliarning "rus modeli" o'lka xalqlarini jaholatda, savodsizlikda, qashshoqlikda ushlab turish siyosatining maqsadini aniqlang. Turkiston bosib olingach, bu yerga mansab istaganlar, ishyoqmas har hil odamlar, hatto jinoiy guruhlar ham kirib kelganligi o'lka xalqlarining ma'nnaviy hayatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligini tahlil qiling.

Mustamlakachilarining o'lka xalqlarining milliy urf-odatlari, e'tiqodlari va qadr-qimmatini oyoq osti qilishlari, madrasa, vaqf yerlarini yo'q qiluvchi buyruqlar chiqarib, musulmonlarning juma nomozlarida (xutbada) podshohning nomini o'qish to'g'risida ko'rsatma berishi hamda mahalliy xalqni tahqirlab ularni har bir rus amaldoriga ta'zim qilishga majburlaganliklari, hatto ko'chada kim ruslarga bukilib ta'zim bermaydigan bo'lsa, uni urib kaltaklashdek g'ayriinsoniy harakatlari Po'latxon, Yetimxon, Darveshxon, Bobo G'o'khan, Dukchi eshon qo'zg'olonlari va "Vabo isyon'i" kabi mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashlariga sabab bo'lganligini tarixiy faktlar orqali asoslab bering.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan so'ng to 1917-yilgacha Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Yettiuv viloyatlarida 4922 marta har xil isyonlar ko'tarilganligi mohiyatini ko'rsating.

Namoz Primqulov harakati, Birinchi jahon urushi munosabati bilan mardikorlikka olish tadbiridagi mustamlakachi ma'murlarning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli kelib chiqqan 1916-yilgi xalq qo'zg'olonlari sabablari va oqibatlarini ochib bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Amudaryo bo'limi, Vassal, Birinchi jahon urushi, Gandimiyon shartnomasi, General gubernator, Imperator siyosiy agentligi, Ko'ktepa qirg'ini, Mardikorlikka olish, Mustamlaka tartibi, Protektorat, Turkiston general-gubernatorligi, Dukchi Eshon qo'zg'oloni, "Vabo isyon'i", Po'latxon qo'zg'oloni.

### **Munozara uchun savollar.**

1. O'zbek xonliklarida josuslik ishlari bilan shug'ullanigan Rossiya elchilar, ekspeditsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiya imperiyasi nima uchun xonlik chegaralarida harbiy istehkomlar qurdi?
3. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati qanday bordi?
4. Rossiya imperiyasi bosqini qanday boshlandi?
5. Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtaisda qachon shartnomaga tuzildi, uning shartlarini bilasizmi?
6. Kaufmanning Xiva xonligiga yurishi, uning natijalari haqida so'zlang.
7. Qo'shon xonligining taqdiri nima bo'ldi?
8. Mustamlakachilar qanday idora usulini joriy etdilar?
9. Mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik qo'zg'ononlarining sabablarini aytib bering.
10. Nima uchun Turkiston o'lkasi Possiya imperiyasining eng isyonkor o'lkasi bo'lib qolgan?
11. 1916-yilgi xalq qo'zg'ononlarining kelib chiqish sabablari nimada edi?

### **11-MAVZU: TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI.**

#### **Reja:**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi.
2. Turkiston jadidlari ilgari surgan g'oyalar va qarashlar hamda ularning progressiv ahamiyati.
3. Jadidlarning o'lka xalqlari orasida olib borgan madaniy oqartuvchilik faoliyati.
4. Jadid namoyondalarining Turkistondagi demokratik va milliy istiqlochilik harakatlariga ko'rsatgan muhim ta'siri.

#### **Adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., "Ma'naviyat", 2008.
2. Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. –Т., 1994.
3. Ватан тўйғуси. –Т., «Ўзбекистон», 1996.
4. Жадидчilik: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараккиёт учун кураш. Тўплам. –Т., «Университет», 1999.
5. Ражабов К., Қандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. Тўлдирилган бешинчи нашри. – Т., "Ўзбекистон", 2012. –Б. 130-144.

6. Содиков М. Эркесвар, хуррияттарвар эл ворисларимиз. –Т., “Камалак”, 1992.
7. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Ikkinchı kitob (qayta ishlangan ikkinchi nashri). –Т., “Sharq”, 2010. –В. 271-307.
8. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O‘zbekiston tarixi / Oliy o‘quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o‘quv qo’llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
9. Ўзбекистон тарихи / Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик. II-жилд (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил июнь). Масъул мухаррир Р.Х. Муртазаева. –Т., “Янги аср авлоди”, 2015. –Б. 201-232.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т., «Шарқ», 2000.
11. Косимов Б. Исмоилбек Гаспирали. – Т., 1992.

### **1.XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi.**

“Turkiston o‘lkasi jahon mustamlaka zanjiridagi eng mustahkam xalqa” deganda siz nimani tushunasiz? Bu masaladagi muammolar adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan B.Qosimovning “Ismoilbek Gaspirali” nomli asarida ochib berilgan.

Ko‘rsatilgan adabiyotlarni konspekt qilganinggizda Rossiya imperiyasi Turkistonni istaganlaricha talash, toptash imkoniyatlarini uzoq vaqt qo‘lda saqlab qolish “huquqini” qo‘ldan chiqarmaslik uchun mahalliy xalqlarni jaholatda saqlash, shu orqali o‘sib borayotgan kapitalistik bozor munosabatlariiga mahalliy burjuaziya vakillarining ishtirok etishlariga tish-timoqlari bilan qarshi turish siyosatlarini ochi bering. Millat ravnaqini o‘ylovchi taraqqiyarvar ziyolilar, ruhoniylar, hunarmandlar, dehqonlar xalqning milliy ongini oshirish va o‘zligini anglashning birinchi bosqichini - ma‘rifatda, ilmu urfonda deb bildilar. Xalqning savodini chiqarmasdan turib, mustaqillik kurashiga otlantrib bo‘lmasligini his qilganligini ochib bering.

Musulmon dunyosining jahon taraqqiyotidan uzilib qolganligi, el-ulusdagi jaholatni yo‘q qilib, ma‘rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish kabi muhim muammolarni Ismoil Gaspirali (1851-1914) faoliyatimisolida yoriting.

Turkistonda jadidchilik harakatining faollari Buxorolik Olim Marjoniy, G‘ijduvonlik domla Fozil, Mo‘minxo‘ja Vobkandi, Mulla Salohiddin domla ochgan jadid maktablari. M. Behbudiy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, Munavvar Qori, Boboouxun Salimov kabi taraqqiyarvar insonlar faoliyatini chuqr o‘rganing.

### **2.Turkiston jadidlari ilgari surgan g‘oyalalar va qarashlar hamda ularning progressiv ahamiyati.**

Bu masalani yorishsha siz taraqqiyarvarlar rus burjuaziyasiga va Turkistonda hukum surayotgan feodal qoloqlikka qarshi otlanganlarning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib maydonga chiqqanligiga e’tibor bering. Ular rus burjuaziyasining mustamlakachi siyosatidan norozi ekanligi va unga qarshi kurashganligini ko‘rsating.

Mahalliy aholining eskicha turmushi va qoloqligiga, bu qoloqliknинг sababi aholi siyosiy ongingin pastligida deb bildilar. Bu borada ular qanday ishni amalga

oshirdilar? Jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurash dasturida asosan uch yo'nalish mavjud edi. Bu yo'nalishlar qaysilar edi?

### **3.Jadidlarning o'lka xalqlari orasida olib borgan madaniy oqartuvchilik faoliyati.**

Bog'chasaroyda nashr etilgan "Tarjumon", Qozonda chiqqan "Vaqt", "Yulduz" jurnallari, Istanbulda chop etilgan "Siroti mustaqim", Toshkentda "Sadoi Turkiston" gazeta va jurnallarining roli. 1914-yil 27-fevralda Toshkentdag'i Kolizey teatri binosida o'zbek milliy teatrining birinchi rasmiy mavsumi ochilishi va bunda Behbudiyning "Padarkush" pyesasi tomoshabinlarga ko'rsatilishi shunchaki madaniy tadbir bo'lmay, balki katta siyosiy ahamiyatga molik ekanligini tushunib olmog'ingiz kerak bo'ladi.

Qo'qonda "G'ayrat", Andijonda "Taraqqiyparvar" kabi jamiyatlar hursikrlilik, milliy ongning o'sishi, milliy ozodlik g'oyalarini targ'ib qilib, xalqni ozodlikka madaniy-ma'rifiy ishlarga tortganligini ochib bering.

### **4.Jadid namoyondalarining Turkistondagi demokratik va milliy istiqlochilik harakatlari ko'rsatgan muhim ta'siri.**

Jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurash dasturini amalga oshirish borasida Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja, Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdulxamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va boshqa taraqqiyparvar ziyyolilarning olib borgan faoliyati va ularning Turkistondagi demokratik va milliy istiqlol harakatlariiga ta'sirini o'rganing. Unda o'lkadagi inqilobiy va milliy ozodlik harakati o'sib borgani sari, jadidlar safi ortib borganligi va XX asr boshida jadid ziyyolilarining butun bir vatanparvar, millatparvar, avlodni tarbiyalab borishdek og'ir vazifani bajarganligini, ular doimo quvg'in, qamoq, surgun kabi xavf-xatarlar boshida charx urib turgan holda ish olib borishlariga majbur bo'liganliklarini ochib bering.

Jadidlar xonliklar davrida ham, Chor hukumati mustamlakachiligi davrida ham va nihoyat sovet tuzumi davrida ham quvg'un ostida olinganligini yoriting.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Burjuaziya. Gummanizm. Ma'rifatparvarlik. Yosh buxoroliklar. Yosh xivaliklar. Jadidchilik. Jadid maktablari. Rus-tuzem maktablari. Panislomizm. Panturkizm. Jadid matbuoti. Jadid teatri.

### **Munozara uchun savollar.**

1. Jadidlar harakati nima va u Turkistonda qachon boshlangan?
2. Kimlar Turkistonda jadidlar harakatiga rahnomolik qildilar?
3. Mahmudxo'ja Bexbudiy faoliyati haqida so'zlang?
4. Munavvar qori Abdurashidxonov faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

- Jadidlar qanday gazeta va jurnallarni nashr etg'anlar?
- Jadidlar qanday g'oyalarni ilgari surishgan?
- Turkiston general-gubernatorligi ma'murlari "Yangi usul" maktablariga qanday munosabatda bo'lganlar?
- "Yosh bukoroliklar" partiyasi faollaridan kimlarni bilasiz?
- "Yosh xivaliklar" harakatining yetakchilaridan kimlarni balasiz?

## **12-MAVZU: SOVET HOKIMIYATINING DAVLAT TE PASIGA KELISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAKATLAR.**

**Reja:**

- Rossiyada 1917-yil voqealari va uning Turkistonga ta'siri.
- Turkiston Muxtoriyati.
- Sovet hokimiyatining Turkistonda o'tkazgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari va uning salbiy oqibatlari.
- Turkistonda Istiqlolchilik harakati.

### **Adabiyotlar.**

- Алихонтура Соғуний. Туркистон кайгуси. – Т., “Шарқ”, 2003.
- Амир Саид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т., “Фан”, 1991.
- Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. – Т. “Маънавият”, 2000.
- Иброҳим Карим. Мадаминбек. – Т., “Ёзувчи”, 1993.
- Наимов Н. Сўнгти ҳукмдор. – Бухоро, “Бухоро”, 2008.
- Ражабов К., Қандов Б., Шоймарданов И. Ўзбекистон тарихининг мухим саналари. Тўлдирилган бешинчи нашри. – Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 145-274.
- Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 3-kitob. 2-nashri (Talabalar uchun o'quv qo'llanma). – Т., “Sharq”, 2010. –Б. 10-335.
- Shamsutdinov R., Maximov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
- Ўзбекистон тарихи / Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. II-жилд (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил ичонь). Масъул муҳаррир Р.Х. Муртазаева. –Т., “Янги аср авлоди”, 2015. –Б. 233-403.
- Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. – Т., “Шарқ”, 2000.

### **1.Rossiyada 1917-yil voqealari va uning Turkistonga ta'siri.**

Ushbu rejani yoritishdan oldin XX asr boshlaridagi umumiy xalqaro munosabatlar, birinchi jahon urushining boshlanishi sabablari va unda Rossiya

imperiyasi hukmon doiralarining ko'zlagan maqsadlari haqida qisqacha ma'lumot to'plang. Ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalaniib Rossiya ro'y bergan 1917-yil fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri, Muvaqqat hukumat va Turkiston qo'mitasi (komiteti)ning faoliyati, jadidlar boshliq mahalliy demokratik kuchlarning jipslashuvi, ozodlik harakatining kuchayishi natijasida "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turk adami markaziyat" farqalari (partiyalari)ning tuzilishi va ular faoliyatiga e'tibor qarating.

1917-yilning yozida Sultonxo'ja Qosimxo'jayev raisligida Toshkentning Eski shahar qismida 13 ta kasaba uyushmasi hamda shu yil avgust bosqlarida Andijonda musulmon hunar ahlining "Sho'roi Islom" sho'rosi tuzilganligi, Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turon", "Turk eli", "Najot", "Kengash", Samarqandda "Oyna", "Hurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi Sharif", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", "Tirik so'z" ro'znomalari, "Hurriyat" jurnali, Farg'onada "Farg'ona nidosi" ro'znomasi chiqa boshlaganligi xalgni siyosiy faollikka chorlaganini gayd gilib o'ting.

Rossiyyada 1917-yil 25-oktabr (7-noyabr) bolsheviklar davlat to'ntarisi (Muvaqqat hukumatning ag'darilishi) va uning asl mazmun-mohiyati, RSFSR (Sovet Rossiysi) va Xalq Komissarlari Sovetining tuzilishi, bolsheviklar partiyasining Toshkentda zo'ravonlik bilan o'tkazgan suniy inqilobi va Turkistonda sovet hokimiyatining o'matilishi, ushbu suniy o'zgarishlarga mahalliy musulmon ziyorilar va jadidlarning munosabatlarni tahlil qiling.

## 2.Turkiston Muxtoriyati.

1917-yil 2-noyabrdagi "Rossiya xalqlari deklaratasiysi", "Rossiya xalqlarining ajralib chiqib, mustaqil davlat tuzishgacha o'z taqdirini erkin belgilash huquqi" hamda, shu asosda Xalq Komissarlar Sovetining "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" degan maxsus murojaati mohiyatini ochib bering.

1917-yil 15-22-noyabrdan Turkiston ishchi, askar va dehgon soveti III-syezdida o'lkada birinchi sovet hukumati (Turkiston Xalq Komissarları Soveti)ning tuzilishi, syezd ishida mahalliy xalqning qonuniy talablari inobatga olinmaganligini, bu esa keyingi keskin kurashlami keltirib chiqarganligini alohida ko'rsating.

1917-yil 26-28-noyabr kunlari Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan O'lka musulmonlarining 4-syezdi, "Turkiston Muxtoriyati" deb nomlangan davlat tuzumining vujudga kelishi, muxtoriyat hukumati a'zolari va ular o'tkazgan islohotlar, muxtoriyatga Turkiston bolsheviklarining munosabati va muxtoriyatning qisqa faoliyatidan so'ng (72 kun) qizil askarlar tomonidan qonga botirilishi sabablarini yoriting

## 3.Sovet hokimiyatining Turkistonda o'tkazgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari va uning salbiy oqibatlari.

Turkiston general-gubernatorligi o'mida RSFSR tarkibidagi Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi (TASSR)ning tuzilishi (1918-yil 30-aprel), berilgan avtonomiya (muhtoriyat) tabiatan milliy bo'lmay, balki hududiy ekanligiga e'tibor qarating.

TASSR hokimiyat organlari – TASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ), TASSR Xalq Komissarları Soveti (XKS), TASSR Kommunistik partiyasi (TKP)ning tashkil etilishi, Turkkomissiyaning tuzilishidan ko'zlangan maqsadlar. TASSR Konstitutsiyasi va uning mohiyati.

TASSRda sovet hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati (yer-suv va sanoat korxonalarining davlat foydasiga musodara qilinishi, vaqf yerlarining tugatilishi, oziq-ovqat solig'i, oziq-ovqat razvyortkasi, "harbiy kommunizm") va ularning samarasiz chiqishi o'inka xalqlari turmush ahvolini battar yomon ahvolga tushirib qo'yanligini tarixiy misollarda isbo'lub bering.

Yangi Iqtisodiy Siyosat (YaIS (NEP)), uning ijobiy tomonlari va ushbu siyosatga nima uchun tez orada barham berilganligiga e'tibor qarating.

Buxoro va Xiva xonliklarida XX asming dastlabki o'n yilliklarida monarxiya tartibotning yemirilishiga olib kelgan tarixiy jarayonlarni oolib bering. "Qiziltepa bitimi" (1918-yil 25-mart), "Taxta bitimi" (1919-yil 9-aprel). Turkiston bolsheviklari tomonidan Buxoro amirligi va Xiva xonligiga inqilobning eksport qilinishi, sun'iy inqiloblar uyuştirilib Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari (XXSR)ning tashkil etilishi. Inqilobiy g'oyalari (sotsializm, kommunizm)ning tiqishtirilishi natijasida vujudga kelgan ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlarni chigallashdirib yoborganligiga urg'u bering.

#### 4.Turkistonda Istiqlolchilik harakati.

Turkiston Muxtoriyatining tor-mor etilganidan so'ng mahalliy aholiga qarshi jazo kompaniyasining avj oldirilishi, masjidlar va madrasalarning yopib qo'yilishi sanoat va hunarmandchilik korxonalarining berktilishi, bozorlarning yopib qo'yilishi, oziq-ovqat razvyorstkasini joriy etish va shu kabi amalga oshirilgan siyosat tub yerli aholining milliy-ozodlik istiqlolchilik harakatining yanada kuchayishiga sabab bo'lganligini ko'rsating. "Turkiston mustaqilligi uchun kurash", "Turkiston ozodligi uchun" degan shiorlar, hurriyatparvarlar o'zlarini "Islom askarlari", "Musulmonobodlik jangchilar", "Turkiston ozodligi" deb ataganlaridan bu harakatlar xalq harakatlari ekanligini bilib oling.

Turkistonda mustaqil davlat barpo etish maqsadida milliy ozodlik harakatiga yo'lboshchilik qilgan Ibrohimbek, Madaminbek, Shermuhammadbek va boshqa qahramonlarimizga sovet tarixchilari tomonidan bosmachi, o'g'ri, muttaham degan tavqi-la'nat tamg'asi bosilishi mohiyatni tushuntiring.

Farg'oneda vodiysi milliy ozodlik – istiqlolchilik harakatining markazi bo'lib qolganligi sabablarini oolib bering. Bunda Kichik Ergash, undan so'ng Katta Mulla Ergash faoliyati, Andijon atroflarida Mahkamxoji qo'rishi, Marg'ilonda Madaminbek, O'sh tomonlarda Xolxo'ja Eshon, Namangan uyezdida Qobil, Omon Polvon va Shermuhammadbek qo'rishiarning qizil armiya qo'shinlari bilan olib borgan kurashlarini o'rganing.

1917-1920-yillarda Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi umumiy ijtimoiy-siyosiy vaziyatga baho bering. Monarxiyaning ag'darilib BXSR va XXSRda bolsheviklar tazyiqi bilan mahalliy shatr-sharoitlarni hisobga olmay o'tkazilgan islohotlar va bularga nisbatan "Yosh xivaliklar" va "Yosh buxoroliklar" partiyasining

munosabati, Buxoro va Xivada qurolli harakat – istiqlolchilik harakatining o'ziga xos tomonlarini tushuntirib bering.

Sovet hokimiyatiga qarshi qaratilgan istiqlolchilik harakatining deyarli 20 yil davom etishi va mag'lubiyatga uchrash sabablarini aniqlang.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

1917-yil fevral inqilobi. Ikki hokimiyatchilik. Muvaqqat hukumat. Turkiston Qo'mitasi. Jadiqlarning faollashuvi. «Sho'roi Islom». «Sho'roi ulamo». Turkiston o'lka musulmonlari Sho'rosi. Oktabr davlat to'ntarilishi. Xalq Komissarlari Soveti. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti. Shovinistik siyosat. Turkiston Muxtoriyati. TASSR. Turkiston Kompartiyasi. Osipov isyonii. Turkkomissiya. Qurolli harakat. Qo'rishi. Yosh xivaliklar. Xiva xonligining ag'darilishi, XXSR. XSSR. Yosh buxoroliklar. "Kolesov voqeasi". Buxoro amirligining ag'darilishi. BXSR. BSSR. Oziq-ovqat razverstkasi. Fuqarolar urushi. «Harbiy kommunizm». Yangi iqtisodiy siyosat (NEP). Shovinistik milliy siyosat.

### **Munozara uchun savollar.**

1. Qanday sabablar Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni keltirib chiqardi?
2. Nega bu kurash dastavval Farg'onada vodiysida boshlandi.
3. Farg'onadagi harakat rahnomalari orasida kimlarning nomlarini alohida ajratib ko'rsatgan bo'lardingiz?
4. Madaminbek shaxsini qanday baholaysiz?
5. Sovetlarning vodiyya yuritgan siyosatida yo'l qo'ygan qo'pol xatolari nimalarda namoyish bo'lgandi?
6. Vodiy qo'rboshilarining bir-birlari bilan yetarli darajada birlasha olmaganligining sabablarini qanday izohlaysiz?
7. Qarshilik ko'rsatish harakatini mag'lubiyatga olib kelgan sabablarni nimalarda deb bilasiz?
8. Sovet hokimiyati kuchlarining qarshilik ko'rsatish harakati kuchlari ustidan g'olib kelganligining asosiy omillarini nimalarda deb hisoblaysiz?
9. Nima sababdan bu harakat o'lkaning turli hududlarida turli vaqtarda sodir bo'ldi?
10. Qarshilik ko'rsatish harakati Turkiston xalqlari uchun qanday muhim saboqlar berdi?

## **13-MAVZU: SOVETLAR DAVRIDAGI IQTISODIY VA MA'NAVIY QARAMLIK. QATAG'ON SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI.**

### **Reja:**

1. 20-yillar oxirida sobiq sovetlar mamlakatida totalitar ma'muriy buyruqbozlik tuzumning qaror topishi.
2. Sovet hokimiyatining 20-30-yillarda O'zbekistonda o'tkazgan industrlashtirish va jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari.
3. 50-80-yillarda O'zbekiston iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi turg'unlik hamda uning asoratlari.
4. Kompartiya va sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatog'on siyosati va uning ijtimoiy, madaniy hayotga salbiy ta'siri.

### **Adabiyotlar.**

1. Алихонтўра Соғуний. Туркистон кайғуси. –Т., “Шарқ”, 2003.
2. Ражабов К., Қандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. Тўлдирилган бешинчи нашри. – Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 174-274
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 3-kitob. 2-nashri (Talabalar uchun o'quv qo'llanma). – Т., “Sharq”, 2010. –В. 246-335., 379-472.
4. Шамсүтдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртларининг нотарих факультетлари талабалари учун кўлланма). – Андижон. 2014. –Б. 447-477.
5. Ўзбекистон тарихи / Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. II жилд (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил июнь). Масъул мухаррир Р.Х. Муртазаева. –Т., “Янги аср авлоди”, 2015. –Б. 437-511.
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида –Т., “Шарқ”, 2000.
7. Ҳўжамбердиев Ҷ. Ўзбеклар иши. – Т., “Ёзувчи”, 1990.

### **1.20-yillar oxirida sobiq sovetlar mamlakatida totalitar ma'muriy buyruqbozlik tuzumning qaror topishi.**

1924-1925-yillarda Turkistonda milliy-hududiy davlat chegaralanishining o'tkazilishi, milliy Respublakalarining tashkil etilishi va ushbu siyosiy tadbirlardan ko'zlangan maqsad, Turkiston xalqlari birligini bo'lib tashlash siyosatiga mahalliy taraqqiy parvar rahbarlar va ziyyolilarning munosabatini o'rGANING.

Ozbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil etilishi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, oliy hokimiyat organlari (O'zSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, O'zSSR Xalq Komissarları Soveti, O'zSSR Kommunistik partiyasi) vakolatlari, 1927-yilda qabul qilingan O'zSSR Konstititsiyasida e'lon qilingan huquq va erkinliklarning butun Ittifoq miqyosida Kompartiya va Markazning yakka

hukmronligi o'matilib ma'muriy buyruqbozlik tuzumi qaror topa borishi bilan faqat qo'ozda qolganligini ochib bering.

Tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan xolda 20-yillar ikkinchi yarmi va 30-yillar davomida I.V.Stalin shaxsiy diktaturasi va ma'muriy buyruqbozlik tuzumining o'matilishi aslida ittifoqdosh respublikalarni markazga to'la qaram qilib qo'yishga qaratilgan siyosiy tadbir bo'lganligini yoriting. 20-yillarning oxiridan boshlab Sovet davlati va O'zbekistonda tarkib topgan totalitar jamiyatning o'ziga xos xususiyatlарини очинг.

## **2.Sovet hokimiyatining 20-30-yillarda O'zbekistonda o'tkazgan industrlashtirish va jamoalaشتirish siyosati va uning oqibatlari.**

Bu savolni ochishda Sovet hokimiyatining xo'jaliklarni qayta qurishga kirishilganligi, shu asosda mamlakatni sotsialistik industrlashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish hamda madaniy inqilobni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlarni o'rganining.

O'zbekistonda sanoatni tiklash ishlari 20-yillarning birinchi yarmida ittifoq markazi manfaatlarini o'ylab reja asosida olib borilganligi, Turkiston mintaqasida uning xom ashyo resurslaridan imkon qadar ko'proq foydalanishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdan boshlanganiga alohida e'tibor bering.

Birinchi navbatda sanoatning paxta tozalash, yog'-moy ishlab chiqarish, ipakchilik, qishloq xo'jaligi mashinalari va mineral o'g'itlar ishlab chiqaradigan korxonalar qurish, konchilik, neft, energetikani har tomonlama rivojlantirish ko'zda tutilgan, korxona qurilishini nazarda tutganligi tub ma'nodagi og'ir sanoatni vujudga keltirish maqsadiga qaratilganligini bilib oling.

Sanoatning muhim tarmoqlarini besh yillik reja asosida rivojlantirish yo'li, Toshkent va Farg'on'a to'qimachilik kombinatlari, Chirchiq ximiya kombinati ishga tushurilishi cho'zilib ketishi, ishchilarning nochor ahvoli, ularning moddiy va ma'naviy jihatdan yetarli ta'minlanmaganligi sabablarini yoritib bering. Respublikamizda yangi sanoat markazlari (Chirchiq, Bekobod, Yangiyo'l, Angren va Quvasoy) vujudga kelganligi bunda mehnatkashlarning qahramonlarcha mehnatini ko'rsatib o'tish kerak.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1930-yil 17-fevralda "Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida" gi qarorining oqibatlari. Qishloq xo'jaligi artelining 1930-yil 6-fevralda qabul qilingan birinchi namunaviy Nizomida yo'l qo'yilgan kamchiliklar nimadan iborat edi? Quloq xo'jaliklari, ularni tugatish kompaniyasining avj oldirilishi, o'rta hol dehqonlarga munosabat masalalari ochib bering.

1931-yil bahoridan boshlab O'zbekistonda "yalpi kollektivlashtirish", uni 1933-yil bahorigacha tugatish rejasining qabul qilinishi. Tarixiy, milliy shart-sharoitlarni hisobga olmasdan "Yakka dehqon" xo'jaliklarining tugatilishi, o'rtahol dehqonlarga bo'lgan munosabat tamomila nooqilona yurgizilishi qishloq xo'jaligining izdan chiqib 30-yillardagi ocharchilikka olib kelganligini ko'rsatib bering.

### **3.50-80-yillarda O'zbekiston iqtisodiy va ma'nnaviy hayotidagi turg'unlik hamda uning asoratlari.**

Partiya yakkahokimlik va turg'unlik siyosati davlatni boshqarish va xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik usuli, uning eskirgan, hozirgi hayat tarziga javob bermay qolgan volyuntaristik, sub'yektivistik shakl, usullari, bu davrda to'la kuch bilan namoyon bo'lganligi, buning oqibatida respublika iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini tobora yo'qotib borganligi, o'z hududida fuqarolarning tub manfaatlarini ko'zlab mustaqil faoliyat yurgizishdan mutlaqo mahrum bo'lishi, hamma sohada Markazga tobelik, mutelikning kuchayib borishi, pirovardida mahalliy partiya tashkilotlarining erkin faoliyat, tashabbus ko'rsatishga g'ov solib, ularni loqaydilik, beparvolik va manqurtlik kasaliga mahkum etilishi. Buning oqibatida Respublika ijtimoiy hayatining barcha sohalari va tarmoqlari yuksalish, rivojlanish o'miga ko'proq tanazzul, depsinish va qoloqlik sari yuz tutishini ohib bering.

Ittifoqdosh Respublikalar orasida o'zining ulkan moddiy-iqtisodiy imkoniyatlari, tabiiy boyliklari, intellektual kuchlari, ajoyib mehnatsevar fuqarolariga ega bo'lishiga qaramay juda katta tisarilish, yo'qatish va mahrumliklarga uchrash davri bo'lganligini isbotlang. Besh yillik reja-topshiriqlari surunkasiga bajarilmasligi, mahalliy daromadning yillar davomida o'sishi o'miga to'xtovsiz pasayib borganligi, oziq-ovqat, xalq istemoli mollari, sanoat maxsulotlarining yetishmasligi oqibati va uning asoratlarini aniqlang.

Paxta yakkahokimligi, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik natijasida "Orol muammosi", tuproq meliorativ holatining buzulishi atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik muammolarni keltirib chiqarganligini ohib bering.

Tazyiq va ta'qiblarga qaramasdan xalqimiz o'z madaniyati, qadriyati, or-nomusi va iymon-e'tiqodini turg'unlik yillarda ham asrab qolganligini ushbu davr fan va madaniyat arboblarining ijodlari misolida ko'rsatib bering. Bu borada o'zbek xalqining atoqli farzandi Sharof Rashidov faoliyatini alohida qayd qilib o'ting.

### **4.Kompartiya va sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatog'on siyosati va uning ijtimoiy, madaniy hayatga salbiy ta'siri.**

Kommunistik partyaning qattiq iskanjası, iqtisodiyot, siyosat, madaniyatni o'z nazoratiga olib ezib tashlaganligi, qabul qilingan qarolarning barchasi tor doirada qabul qilinishi va bu qaroming butun mamlakat uchun majburiy bo'lib qolganligi, erkin bahs-munozaralarga barham berilish siyosatining oqibatlarini ko'rsatib bering.

Demokratiyani bo'g'ish Konstitusiyada e'lon qilingan haq-huquqlarning ommaviy ravishda buzulishi, o'zbek halqi boshiga tushgan kulftatlarni bilib oling.

Madaniy soxta stalincha "sakrash", jadallashtirish O'zbekistonda qisqa muddat ichida alifbomizni ikki marta o'zgartirilishi (1929, 1940-yillarda) respublikamiz ma'nnaviy hayatiga mislsiz zarar yetkazilganligini ohib bering. Umumiyl qatag'onlik siyosati oqibatida milliy davlat arboblarimizning millatchilikda ayiblanishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muqobil yo'llarini amalga oshirishga uringan kishilarga "Guruhbozlik" ayblari qo'yilishi "Inog'omovchilik", "O'n sakkizlar guruhi", "Qosimovchilik" deb nomlangan ishlarning to'qib chiqarilishi. 1929-yilda atoqli

ma'rifatchi Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zolarining qamoqqa olinishi.

O'zbekiston Respublikasining hayotiy manfatlari, uning zaruriy ehtiyojlari uchun uning ravnaqi istiqboli uchun qayg'urgan va shu maqsadda ittifoq hukumati oldiga muayyan talablar qo'ygan mahalliy rahbar xodimlar taqdiri (T.Risqulov M.Abdurashidxonov, Q.Otaboyev, N. To'raqulov, I. Xidiraliyev va boshq.) "Sotsializm rivojlanib borgan sari sinfiy kurash ham shunchalik kuchayib boradi" degan Stalincha sohta g'oyaning mag'zini chaqing.

Yirik jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramz) Nosir Saidov, Mahmud Xodiyev (Botu), Hosil Vositov, Sobir Qodirovlarning o'lim jazosiga hukm qilinishi. O'zbek davlat arboblarida Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov va ziyolilardan A.Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Q.Aliyev, Sh.Sulaymonov, M.So'fizoda, A.Yaqubov, Miyon Buzruk Solixov kabi o'zbek xalqining ma'naviy mulkiga bebaxo xissa qo'shgan ijodkorlarning yo'q qilinishi. 50-yillar boshlarida ijodkor ziyolilardan Oybek, M.Shayxzoda, Shuxrat, Shkurullo, Hamid Sulaymon va boshqalaming ta'qib qilinishi va o'zbek xalqining 80-yillarda milliy qadriyatları, urf-odatlarining yana bir marta yoq qilinishi. "Paxta ishi", "O'zbek ishi" kabi uydirmalarning to'qib chiqarilishidan ko'zlangan maqsadni ochib bering.

Yuqoridagi masalalarni ochish uchun siz O'zbekistonning yangi tarixi 2-jild, "O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida" deb nomlangan ilmiy ommabop asardan keng foydalanishingiz mumkin.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Milliy davlat chegaralanishi. O'zbekiston SSR. Ateizm, Byurokratiya, Kompartiya, Jamoalashtrish, Industrlashtirish, Yer-suv islohotlari. «Qo'shchi» uyushmasi. Ikkinchı jahon urushi, "Inog'omovchilik", Kommunizm, Sotsializm, Qulqolashtirish, Repressiya, Totalitarizm, "Turg'unlik yillari". "Xujum" harakati, Shovinizm, "Qosimovchilik", "Qizil imperiya". Paxta yakkahokimligi. "Orol muammosi"

### **Munozara uchun savollar.**

1. Totalitar sovet tuzumi qanday yo'llar va vositalar bilan O'zbekistonni o'z domiga tortib bordi?
2. Respublikadagi milliy kuchlarni ajratib tashlash Markazga nima uchun kerak bo'ldi?
3. "Inoqomovchilik" va "qosimovchilik" degan siyosiy ishlarni to'qib chiqarish va ularni faoliyatiga siyosiy tus berishdan ko'zda tutilgan maqsadlar nima edi?
4. Nima sababdan XX asr 30-yillari ikkinchi yarmiga kelib respublika rahbariyati qatag'on qilindi, ularga qanday "ayb" qo'yildi?
5. Ilg'or o'zbek ziyolilarni qatag'on qilish nima uchun kerak bo'lib qoldi?
6. O'zbek ziyolilari sha'niga qanday "ayblar" tirkaldi?

- Siz yashayotgan shahar va tumanda qatag‘on qilinganlardan kimlarni bilasiz, ular xaqida so‘zlab bering.
- Totalitar tuzum ma’murlarining inson huquqlari va erkinliklari masalasiidagi munofiqligini siz qanday izohlaysiz?
- Sovetlarning “Madaniy inqilob” g‘oyasining asl maqsad, muddaosi nimada edi?
- O‘zbekistonda ilm-fan rivoji qanday tarzda kechgan?
- O‘zbekistonda “Hujum” harakatini o’tkazishdan ko‘zlangan maqsad nima edi?
- “Hujum” harakati qanday oqibatlarni yuzaga yekltirdi?
- Nima sababdan O‘zbekistonda din va dindorlarga qarshi shiddatli kurash avj oldirildi?
- 30-yillarda madaniy hayotda yuz bergen eng muhim voqealardan qaysi birlarini aytib bera olasiz?
- Urushdan keyingi davrda O‘zbekiston ilm-fanining rivoji va muammolari haqida taassurotlaringiz?
- Respublika ma’naviy hayoti jabhalariga Markazning zo‘ravonlik siyosati va taziyqi qanday kuchayib bordi?

#### **14-MAVZU: O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH OSTONASIDA (1989-1991).**

**Reja:**

- XX asrning 80-yillari oxirida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot.
- O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish tomon yo‘l tutishi.
- Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi.

#### **Adabiyotlar.**

- Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., “Ma’naviyat”, 2008.
- Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., “Ўзбекистон”, 2011.
- Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т., “Ўзбекистон”, 2015.
- Алимова Д.А., Голованов А.А. Ўзбекистон мустақил совет тузуми даврида: сиёсий ва мағкуравий тазйик оқибатлари (1917-1990 йиллар). –Т., “Ўзбекистон”, 2000.
- Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Р. Рӯзиев ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т., “Шарқ”, 2006.

6. Ражабов Қ., Қандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. Тўлдирилган бешинчи нашри. – Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 244-274.
7. Хўжамбердиев Е. Ўзбеклар иши. – Т., “Ёзувчи”, 1990.
8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 3-kitob. 2-nashri (Talabalar uchun o‘quv qo‘llanma). – Т., “Sharq”, 2010. –В. 460-472.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т., “Шарқ”, 2000. –Б. 659-676.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т., “Шарқ”, 2000.
11. Xalq сўзи. 2013 йил 14 июн сони.
12. <http://www.gov.uz>
13. <http://www.press-service.uz>

## **1.XX asrning 80-yillari oxirida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot.**

O‘tgan asrning 80-yillari o‘rtalariga kelganda sovet davlatida ishlab chiqarish samaradorligi, maxsulot sifati, fan texnika taraqqiyoti bo‘yicha jahon mamlakatlaridan orqaga qola boshlashi, mehnatga nisbatan qiziqitirish tizimining yo‘qolib borganligi tufayli odamlar ruhiyatida boqimandalik, umidsizlik va loqaydlik kayfiyatining kuchayib borganligini hayotiy misollarda ochib bering.

80-yillarning ikkinchi yarmiga kelganda O‘zbekistonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Ittifoqda oxirgi o‘rinlardan biriga tushib qolgani, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish Ittifoq darajasidan ikki barobar kamayib ketganligi, respublikamiz aholisining moddiy va ijtimoiy ne’matlar bilan ta’minlanganlik darajasi boshqa respublikalarga nisbatan nochor ahvolga tushib qolish sabablarini Prezidentimiz I.Karimov asarlarida keltirilgan tarixiy faktlarga asoslanib yoriting.

Sotsializmni isloh qilishga bo‘lgan so‘nggi urinish – “Qayta qurish” siyosati va uning barbod bo‘lish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda O‘zbekiston bilan Markaz manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashib borishini yoriting. 1989-yilda Respublikamizning turli hududlarida millatlararo etnik mojarolarning sodir bo‘lishi va buning orqasida turgan kuchlar kimlar bo‘lganligiga aniqlik kriting va tarixiy xulosalar chiqaring. Ishsizlikning ko‘payishi, narx-navolarning ko‘tarilib keng xalq istemoli maxsulotlari tanqisligi, pulning qadrsizlanishi masalalariga e’tibor qarating.

## **2.O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish tomon yo‘l tutishi.**

Ushbu rejani yoritishda 1989-yil iyun oyidan I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi rahbari etib tayinlanishi, yangi rahbariyatning Farg‘ona, Parkent, Bo‘ka voqealariga nisbatan tutgan pozitsiyasi, respublika aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilab izga solish borasida amalga oshirgan chora tadbirlarini qayd qiling. Bunda eng avvalo aholining kam ta’minlangan qismini qo‘llab-quvvatlash

borasida davlat yerlari hisobidan aholiga qo'shimcha tomorqa yer maydonlarining ajratib berilishi kabi muhim tadbirlarning tarixiy ahamiyatini ochib bering.

1989-yil oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, xalqimizning sovet tuzumi davrida ta'qib ostiga olingan milliy urf-odatlari, an'ana-qadriyatlarning tiklanishi (navruz, vijdon, din erkinligi) tomon yo'l tutilishi xalqimiz ruhiyatida kelajakka ishonch, respublika rahbariyati tutgan yo'lning xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlash kayfiyatining boshlanganligini tarixiy misollar bilan asoslab bering.

1991-yil 17-mart referendumi va uning natijalari. Yangi O'zbekiston rahbariyati yuritayotgan milliy manfaatlarga javob beradigan xalqchil islohotlami izhil davom ettirish maqsadida 1990-yil 24-martda O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvini ta'sis etilishining tarixiy ahamiyatiga e'tibor qarating.

1990-yil 20-iyunda "Mustaqillik deklaratasiysi"ning qabul qilinishi va unda ilgari surilgan tamoyillarni sharhlang.

### **3.Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi.**

1990-1991-yillarga kelib sovet jamiyatida ichki ziddiyat va keskinlikning kuchayishi, eski tuzumming inqirozga yuz tutganligi nimalarda ko'rindi? Yangilangan ittifoq shartnomasi, uni ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsad, yangi shartnomaga ittifoqdosh respublikalar, jumladan O'zbekistonning munosabati. "9+1" uchrashuvlari, „Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma“ loyihasi, eskilik tarafдорлари bo'lgan reaksiyon kuchlar bilan demokratik kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. SSSRning yuqori davlat rahbarlaridan bir guruhining 1991-yil 19-21-avgustda Favqulodda holat Davlat qo'mitasi (GKCHP)ni tuzib davlat to'ntarishi o'tkazishga urinislari, uning barbod bo'lishi sabablari I.Karimov boshliq O'zbekiston hukumatining fitnachilarga nisbatan tungan pozitsiyasi qanday bo'lganligini tahlil qiling.

1991-yil avgust oyi oxirida yuzaga kelgan og'ir va tahlikali tarixiy sharoitda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 20-avgustdag'i Bayonoti, Prezidentimiz I.Karimovning respublika aholisiga murojaati va igitmoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan 21-avgust hamda 25-avgust Farmonlarining tub mohiyatini ochib bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Turg'unlik holati. "Qayta qurish" siyosati. Demokratlashtirish. Milliy o'zlikni anglash. Norasmiy tashkilotlar. «Birlik» xalq harakati. Farg'onona fojiasi. Davlat tili haqida Qonun. O'zbekistonda Prezident lavozimi. «Mustaqillik Deklaratsiyasi». 1991-yil 17-mart referendumi. "9+1" uchrashuvlari. „Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma“. Favqulodda holat Davlat qo'mitasi (GKCHP).

## **15-MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON DAVLATINING BAROQ ETILISHI. SIYOSIY ISLOHOTLAR. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANTIRILISHI.**

### **Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzları va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
2. Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti.
3. Mustaqillik yillarda siyosiy islohotlar.
4. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatı asoslarning shakllantirilishi.

### **Adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., “O'zbekiston”, 2016.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқол ва тараккиёт йўли. – Т., “Ўзбекистон”, 1992.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., “Ma’naviyat”, 2008.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустакилликка эришиш остонасида. – Т., “Ўзбекистон”, 2011.
5. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги Йилида хизмат қилиш – энг олий саодатdir. – Т., “Ўзбекистон”, 2015.
6. Мустакиллик: Изоҳли илмий-оммабоп лугат // Р. Рӯзиев ва К. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т., “Шарқ”, 2006.
7. Ражабов Қ., Кандов Б., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. Тўлдирилган бешинчи нашри. – Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 275-439.
8. Shamsutdinov R., Maxmudov X. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. –Т., “Sharq”, 2013.
9. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т., “Янги аср авлоди”, 2012.
10. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т-12. – Т., 2006.
11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустакил Ўзбекистон тарихи. – Т., “Шарқ”, 2000.
12. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. – Т., 2015. –Б. 143-157.
13. [www.gov.uz](http://www.gov.uz). - O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalı.
14. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz). – O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lif portalı.
15. [www.udu.uz](http://www.udu.uz). – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi portalı.
16. [www.press-servis.uz](http://www.press-servis.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.

## **1.O'zbekiston Respublikasi davlat ramzları va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.**

1991-yil 31-avgustdagı O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi navbatdan tashqari VI-sessiyasining chaqirilishi va unda Prezidentimiz I.Karimovning "Mustaqil O'zbekistonning davlat siyosati insoniylik va ezzulik qonunlariga asoslanadi" deb nomlangan ma'rurasinig mazmuni hamda "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunda ilgari surilgan tamoyillar bilan batafsil tanishib chiqing. 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi kuni deb deb e'lon qilinish, poytaxtimizdagi bosh maydonni "Mustaqillik maydoni" deb qayta nomlanishi va uning tarixiy ahamiyatiga e'tibor qaratag.

O'zbekiston Respublikasining ma'muruy-hududiy tuzilishi, aholisi, milliy tarkibi va moddiy-iqtisodiy imkoniyatlariga baho bering.

1991-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan umumxalq referendumi va birinchi Prezidentlik saylovları, uning natijalari, erkin, oshkora va demokratik ruhda o'tkazilgan saylovlarining xalqaro hamjamiyat tomonidan bir ovozdan e'tirof etilishini tarixiy misollar bilan asoslang.

Davlatimiz milliy ramzları (Davlat bayrog'i, Davlat gerbi, Davlat madhiysi, Milliy valyuta )ning va birinchi mustaqil Konstitutsiyamizning ishlab chiqilish jarayoni, qabul qilinishi, Konstitutsiyamizning sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan Konstitutsiyalardan farqi, tuzilishi va unda ilgari surilgan tamoillarni batafsil izohlang. Davlat ramzları – milliy mustaqilligimiz va milliy, ma'naviy-ruhiy birligimiz va porloq kelajagimiz ramzi ekanligiga urg'u bering.

## **2.Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti.**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishida Islom Abdug'aniyevich Karimovning tarixiy xizmati. Qon to'kmay, inqilobiy emas islohot, ma'rifat yo'li bilan erishilgan istiqlolning biz uchun ahamiyatini jahon tarixida mustaqillik uchun kurashlar davridagi qonli kurashlar bilan qiyoslab baho bering.

Islom Karimovning hayot yo'li (biografiyasi), 1989-yil iyun oyidan O'zbekiston Respublikasiga rahbar etib tayinlangandan keyingi islohotchilik faoliyati qanchalik oqilona yuritilganini mamlakatimiz va horijiy davlatlardagi nashr etilgan adabiyotlarda keltirilgan faktlar orqali asoslang.

Mustaqilik yillarda o'tkazilgan prezidentlik saylovları va referendumları, unda Rezpublikamiz aholisining Islom Karimov nomzodini ko'pchilik ovoz bilan qo'llab-quvvatlashlari sabablarini hayotiy misollar bilan tushuntiring.

Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilgan va jahon hamjamiyati tomonidan taraqqiyotning "O'zbek modeli" deya e'tirof etilgan rivojlanish yo'lining asosiy tamoyillari hamda ularning Prezidentimiz asarlarida yoritilishiga to'xtalib o'ting.

Jamiyatimizni iqtisodiy va ma'naviy yuksaltirishda, huquqiy demokratik hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishda Islom Karimov asarlarining tutgan o'mini va ahamiyatini yoriting.

### **3.Mustaqillik yillarda siyosiy islohotlar.**

Rejani yoritishdan avval siyosiy islohotlarni o'tkazish zarurati nimadan kelib chiqqanligiga e'tibor qarating. I.Karimovning „O'zbekistonning o'z isliqlol va taraqqiyot yo'li“ (1992) asarida belgilab berilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar mazmun-mohiyatini yoriting.

1990-1994-yillardagi qonun chiqaruvchi o'rgan – Oliy Kengashning mustaqil O'zbekiston davlatini barpo etishdek muhim qonunchilik faoliyati. Mustaqillik yillarda Oliy Majlisning tashkil etilishi. Oliy Majlisning Oliy Kengashdan farqi, ikki palatali parlamentning ta'sis etilishi va uning konstitutsiyaviy vakolatlari, parlament saylovleri hamda Oliy Majlisning qonunchilik faoliyatiga oid ma'lumotlarga ega bo'ling.

Milliy davlat boshqaruv hokimiyati tizimi – Vazirlar Mahkamasining tashkil etilishi, maqsad va vazifalari, konstitutsiyaviy vakolatlari, tarkibiy tuzilishi (vazirliklar, davlat qo'mitalari), Mahalliy davlat hokimiyati organlari (Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, hokimliklar) va mustaqil hokimiyat organi – Sud hokimiyatining tashkil etilishi kabi masalalarni yo'ritning.

### **4.Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni asoslarining shakllantirilishi.**

Huquqiy-demokratik davlat tushunchasiga izoh bering. O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat qurishning o'ziga xos yo'li, o'zini-o'zi boshqarish organlari vakolatlari va faoliyati, Mahalla institutinig ijobjiy tomonlarini ta'riflang.

Siyosiy huquqlar, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar, demokratik saylov tiziminining yaratilishi, istiqlol yillarda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining tashkil etilishi va faoliyatini yoriting (Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi, V-XI boblari).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huqiqiy asosi va kafolati bo'lib xizmat qilayotganligini ko'rsatib bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Davlat suvereniteti. Saylov. Referendum. 1991-yil 29-dekabr referendumi. Davlat bayrog'i. Davlat gerbi. Davlat madhiysi. Konstitutsiya. Konstitutsiyaviy tamoyillar. Milliy valyuta. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Huquqiy davlat. Fuqarolik jamiyat. Siyosiy partiyalar. Jamoat birlashmalari. Nodavlat tashkilotlari.

## **16-MAVZU: O'ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANTIRILISHI. IQTISODIY ISLOHOT SAMARALARI.**

### **Reja:**

1. Bozor munosabatlariga o'tishning "O'zbek modeli" va ustivor yo'nalishlari.
2. Mustaqillik yillarda Respublika iqtisodiyotida yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar va sanoat rivoji.
3. Mustaqillik yillarda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar va uning samaralari.

### **Adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., "O'zbekiston", 2016.
2. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқтол ва таракқиёт йўли. – Т., "Ўзбекистон", 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т., "Ўзбекистон", 1993.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида. – Т., "Ўзбекистон", 1994.
5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5-жилд, – Т., "Ўзбекистон", 1997.
6. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т., "Ўзбекистон", 1999.
7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқизози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т., "Ўзбекистон", 2009.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон мустакилликка эришиш остонасида. – Т., "Ўзбекистон", 2011.
9. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т., "Ўзбекистон", 2015.
10. Мустакиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Р. Рузиев ва К. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т., "Шарқ", 2006.
11. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг кадимги даврлардан бугунги кунгача) / К. Ражабов ва бошк. масъул мухаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешиичи нашри. – Т., "Ўзбекистон", 2012. –Б. 275-439.
12. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. – Т., 2015. –В. 157-168.
13. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali.
14. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz) - O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lif portali.
15. [www.udu.uz](http://www.udu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi portali.
16. [www.press-servis.uz](http://www.press-servis.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot

xizmati.

17. [www.aza.uz](http://www.aza.uz) – O'zbekiston milliy axborot agentligi.

## **1.Bozor munosabatlariga o'tishning "O'zbek modeli" va ustivor yo'naliishi.**

Sovet imperiyasi davridagi mustabid tizimda, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishdan va mustaqil islohotlar o'tkazishdan mahrum etilganligini, taraqqiy topgan mamlakatlardan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida orqada qolganligini, bir yoqlama majrux beso'naqay iqtisodiyotni meros qilib olganligini tarixiy misollar bilan asoslang.

Sotsialistik iqtisodiyot bilan bozor iqtisodiyotining bir biridan farqini ochib bering.

Mustaqillik e'lon qilinishi bilan O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirish yo'liga kirishganligi va bu yo'l Konstitusiyamizning qaysi bob va moddalarida o'z o'mmini topganligini aniqlang.

Iqtisodiy mustaqillik imkoniyatlari, islohotlarning strategik maqsadlari, islohotlarning huquqiy asoslari, xususiylashtirish tushunchasi, davlat mulkini xususiylashtirish va uning bosqichlariga to'xtaling.

Respublika iqtisodiyotining dastlabki davrida aholining turmush darajasini hisobga olib, xalqaro tajribaga hamda Respublikaning o'zidagi tabiiy imkoniyatlari, xom ashyo va mehnat resurslariga tayanib turib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos, mustaqil yo'li ishlab chiqishga qaratilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosiy tamoyillarini sharxlang.

Nima uchun hozirgi kunda taraqqiyotning "O'zbek modeli" obro'li xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, siyosatshunoslar va davlat arboblari tomonidan e'tirof etilayotganligini asoslang.

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning mamlakat yalpi ichki maxsulotidagi salmog'i yildan yilga ortib borayotganligini Prezidentimizning so'nggi yillarda yirik xalqaro konferensiyalar, Vazirlar Mahkamasining yig'ilishlari va ommaviy axborot vaositalarida bergen intervyulari asosida yoritib bering.

## **2.Mustaqillik yillarida Respublika iqtisodiyotida yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar va sanoat rivoji.**

Istiqlol yillarida O'zbekistonda xomashyo yetishtirishga mo'ljallangan iqtisodiyotdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi, korxonalarni yangi, zamonaliv texnika, asbob-uskunalar bilan qayta jihozlanishi, norentabel korxonalarining tugatilishi, raqobatga bardosh bera olmaydigan mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar ictisoslashuvining o'zgartirilishi va yangi korxonalar barpo etish borasida Respublikamizda qanday amaliy tadbirlar o'tkazilganligini sanab o'ting.

2009-yil 22-23-may kunlari Toshkentda "Jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralar" mavzuida o'tkazilgan xalqaro konferensiya yakunlaridan tegishli xulosalar chiqaring.

Mustaqillik tufayli bozor infratuzilmasini shakllantirish uchun imkoniyatlar qo'lga kiritilganligini, bu orqali investitsiyalashning davlat tomonidan rag'batlantirilishi mohiyati. Buning samarasi sifatida Respublikamizda yoqilg'i mustaqilligining ta'minlanganligi, bu borada Buxoro neftni qayta ishlash zavodining buniyod etilishi, konchilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha "Zarafshon-Nyumont" kabi qator qo'shma korxonalarining buniyod etilishi. Mashinasozlik sanoati ("O'zmashsanoat", "O'zqishloqxo'jalikmash-xolding", "O'zneftgazmash", "O'zbekto'qimachimash", "O'zKeysmash" va "O'zKeystraktor"), zamonaviy avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha "UzDEUavto", "SamKochavto", "JVMAN Avto-O'zbekiston" qo'shma korxonalarining buniyod etilishi mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojida ulkan qadam bo'lganligini ko'rsating.

Og'ir va yengil sanoatni zamonaviy andozalar asosida rekonstruksiya qilish, yangi ochilgan mahalliy va xorijiy qo'shma korxonalar faoliyatiga, ularning O'zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishda tutgan o'miga baho bering.

### **3.Mustaqillik yillarda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar va uning samaralari.**

Mustaqillik sharoitida agrar islohotlar o'tkazilishi natijasida qishloqda mulkiy munosabatlarning o'zgarib borishi. Bu borada dehqon fermer xo'jaliklarining vujudga kelishi qishloqda bozor infratuzilmasini yaratishdagi dadil qadamlar ekanligini ko'rsating.

Respublikamizda paxta hosildorligi va sifatini yaxshilashga berilayotgan e'tibor, shu maqsadda barpo etilgan suv omborlari va sun'iy kanallar, yerning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari, suv tanqisligi hisobga olinib, 1998-yildan boshlab paxtachilikda Isroil texnologiyalari asosida tomchilatib sug'orish usulidan foydalanila boshlanishi kabi agrotexnik tadbirlar samaralarini yoriting.

G'alla mustaqilliga erishish yo'lida amalga oshirilayotgan tadbirlar, un va un mahsulotlari, shakar, qand, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish, chorvachilik yildan yilga izchil o'sib borayotganligi qishloq xo'jaligidagi islohotlarning samarasi ekanlisini yoritib bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Taraqqiyotning "O'zbek modeli". Bozor iqtisodiyoti. Sotsialistik iqtisod. Iqtisodiy islohotlar. O'tish davri. Xususiy mulk. Xususiy lashtirish. Biznes. Renta. Kichik biznes. Xususiy tadbirkorlik. Makroiqtisodiyot. Menejment. Birja. Infrastruktura. Inflyatsiya. Investitsiya. Yoqilg'i-energetika mustaqilligi. Oziq-ovqat mustaqilligi. Sanatsiya. Stagnatsiya. Diversifikatsiya. Agrar islohotlar. Fermer xo'jaligi.

### **Munozara uchun savollar.**

1. Mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiy meros qolgan edi?
2. Mustaqillik iqtisodiyot bobida qanday imkoniyatlar yaratdi?

3. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishda qanday yo'lni tanladi?
4. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi qanday qonunlar qabul qilindi?
5. Kichik xususiyashtirish qachon o'tkazildi, qanday natijalar berdi?
6. O'rta va yirik korxonlarni xususiyashtirish haqida so'zlab bering.
7. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
8. Agrar islohotlarning natijalari haqida so'zlab bering.
9. Narxlarni erkinlashtirish qanday amalga oshirildi?
10. Bozor infratuzilmasining yaratilishi haqida so'zlab bering.
11. Chet el sarmoyalaringin O'zbekiston iqtisodiy otiga jaib etilishi haqida nimalarni bilasiz?
12. O'zbekistonning yoqilg'i mustaqilligiga erishishini tushuntirib bering.
13. Mashinasozlik sanoatida qanday yangi korxonalar barpo etildi?
14. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida qanday tadbirlar amalga oshirilli?
15. [www.gov.uz](http://www.gov.uz). - O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali.
16. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz). - O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lif portali.
17. [www.udu.uz](http://www.udu.uz). - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi portali.
18. [www.press-servis.uz](http://www.press-servis.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuat xizmati.
19. [www.aza.uz](http://www.aza.uz). - O'zbekiston milliy axborot agentligi.
20. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.

## **17-MAVZU: O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN IJTIMOIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHI.**

**Reja:**

1. Aholini ijtimoiy himoyalash va millatlararo totuvlikning mustahkamlanishi
2. O'zbekistonda ta'lif va so'g'liqni saqlash tizimining rivojlanishi
3. Milliy xavfsizlik va mamlakat mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi

### **Адабиётлар.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., “O'zbekiston”, 2016.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т., “Ўзбекистон”, 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иктисад, сиёсат, мафкура. Асарлар, 1-жилд. – Т., “Ўзбекистон”, 1996.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустакилликка эришиш остонасида. – Т., “Ўзбекистон”, 2011.
5. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатdir. –Т., “Ўзбекистон”, 2015.

6. Баркамол авлод орзуси. – Т., ЎМЭ, 2000.
7. Мустакиллик: Изоҳли илмий – оммабоп луғат // Р. Рӯзиев ва К. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т., „Шарқ”, 2006.
8. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / К. Ражабов [ва бошк.]; масъул муқаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т., „O'zbekiston”, 2012. –Б. 275-439.
9. Jo'rayev N. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – To'ldirilgan, qayta nashr. – Т., “G'afur G'ulom”, 2009.
18. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. – Т., 2015. –Б. 157-168.
10. [www.manaviyat.gov.uz](http://www.manaviyat.gov.uz). - O'zbekiston Respublikasi ma'naviyat targ'ibot markazi.
11. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz). - O'zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy Milliy kurubxonasi.
12. [www.aza.uz](http://www.aza.uz). - O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi.
13. [www.kamolot.uz](http://www.kamolot.uz). - O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar harakati.
14. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz). - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi portali.

### **1.Aholini ijtimoiy himoyalash va millatlararo totuvlikning mustahkamlanishi.**

Rejani yoritishda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning besh tamoyilidan biri – “O'tish davrida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash” deb belgilanganligi, O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlarning asl maqsadi insonlarga munosib turmush va mehnat sharoitlarini yaratib berishga qaratilganligini nazarda tutish lozim.

Ana shu maqsadlarni ro'yogha chiqarish uchun aholi daromadlari darajasini saqlash, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, maishiy xizmat, millatlararo totuvlikni ta'minlanish borasida amalga oshirilgan ishlarni yoritib bering.

Mustaqillik yillarda yillarning nomlanishi (1997-yil – „Inson manfaatlari yili“, 1998-yil – „Oila yili“, 1999-yil – „Ayollar yili“, 2000-yil – „Sog'lom avlod yili“, 2001-yil – „Onalar va bolalar yili“, 2002-yil – „Qariyalarni qadrlash yili“, 2003-yil – „Obod mahalla yili“, 2004-yil – „Mehr va muruvvat yili“, 2005-yil – „Sihat-salomatlik yili“, 2006-yil – „Homiylar va shifokorlar yili“, 2007-yil – „Ijtimoiy himoya yili“, 2008-yil – „Yoshlar yili“, 2009-yil – „Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili“, 2010-yil – „Barkamol avlod yili“, 2011-yil – „Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili“, 2012-yil – „Mustahkam oila yili“, 2013-yil – „Obod turmush yili“, 2014-yil – „Sog'lom bola yili“, 2015-yil – „Keksalarni e'zozlash yili“, 2016-yil – „Sog'lom ona va bola yili“) va belgilangan soha bo'yicha yil davomida hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy davlat dasturlarining ijrosi samaralarini hayotiy misollarda ko'rsatib bering.

O'zbekistonda nogironlar, yolg'iz onalar, yetim bolalar, keksalar, kambag'allarga davlatimiz alohida e'tibor berayotganligini, bu esa davlatimizning ijtimoiy negizini, uning barqarorligini ta'minlashda muhim kafolat ekanligini asoslab bering.

## **2.O'zbekistonda ta'lismi va so'g'liqni saqlash tizimining rivojlanishi.**

Ta'lismi barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekistonda ta'limi muhim va dolzarb soha sifatida rivojlanishiga alohida e'tibor berildi. "Ta'lismi to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi, undan ko'zlangan maqsad, istiqlol yillarda mazkur xujjalarning ijrosi borasida amalgga oshirilgan ishlarni yoriting.

Iste'dodli yoshlami moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan „Ulug'bek“, „Umid“, Respublika bolalar fondi, „Kamolot“, „Sog'lom avlod uchun“, „Iste'dod“ jamg'armalari, ta'limda xalqaro hamkorlik masalalariga e'tibor qarating.

Aholi salomatligiga g'amxo'rlik qilish O'zbekistonda amalgga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Konstitutsiyamizda aholi salomatligini saqlash borasida qaysi tamoil ustuvor qilib belgilab qo'yilgan? Ushbu tamoil asosida mamlakatimiz parlamenti tomonidan sohaga oid qanday qonunlar qabul qilingan? Mustaqillik yillarda hukumatimiz qarori va buyruqlari asosida respublikamiz poytaxti va viloyatlarida qanday ishlarni amalgga oshirildi? Aholi tibbiy savodxonligi va salomatligini yaxshilash maqsadida tashkil etilgan meditsina oliv va o'rta maxsus o'quv yirtlari, zamonaviy poliklinika-tibbiyat, farmasevtika muassasalarining foaliyatini o'zinggiz yashayotgan hudud misolida holisona o'rganing va ularga baho bering.

## **3.Milliy xavfsizlik va mamlakat mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi.**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab milliy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakatning hududiy butunligini saqlash masalalari davlatimizning diqqat markazida turdi. Xalqaro vaziyat, Ittifoq parchalangandan keyingi muhit, qo'shni davlatlar Afg'oniston va Tojikiston)dagagi notinchlik bu boradagi ishlarni kechiktirib bo'lmasligini taqozo etardi.

1991-yil 6-sentabrda Prezidentimiz Islom Karimov farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining tuzilishi, 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan „O'zbekiston hududida joyiashgan harbiy qismlar va o'quv muassasalari to'g'risida"gi Qarori asosida O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi, 1992-yil 2-iyunda „Mudofaa to'g'risida" Qonunning qabul qilinishi, 1993-yildan 14-yanvarni – Yatan himoyachilar kuni deb e'lon qilinishining mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini yoriting.

Ogohlik – davr talabi. Ushbu so'zlamning naqadar dolzarb ekanligini bugungi xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar, ularning taraqqiyot sari ildam borayotgan davlatimiz, xalqimizga xavfini o'tgan yillarda mamlakatimizda sodir etilgan diniy-ekstremistik ruhdagi terroristik harakatlar misolida tushuntirib o'ting.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston davlat mustaqilligining mustahkamlanishi, Vatan xavfsizligining ta'minlanishi, O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan qat'iyatli siyosati davlatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada oshirganligini asoslab bering.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

O'tish davri. Ijtimoiy islohotlari. Kuchli ijtimoiy himoya. Millatlataro totuvlik. Ta'lif ro'g'risidagi qonun. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod. "Kamolot". "Sog'lim avlod uchun". Yillarning nomlanishi. Vatan himoyachilari kuni. Terrorizm. Diniy eksrtemizm. Milliy xavfsizlik.

### **Munezara uchun savollar.**

1. O'tish davri deganda nimani tushunasiz?
2. Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlariga kimlarni kiritish mumkin?
3. O'zbekistonda yillarning nomlanishidan ko'zlangan maqsad nima?
4. Bugungi kunda O'zbekistonda qancha millat va elat yashaydi?
5. Tolerantlik deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekistonda birinchi ta'sis etilgan ordenni bilasizmi?
7. Ijtimoiy himoya masalalari Konstitutsiyamizning qaysi moddalarida belgilab berilgan?
8. Iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlash maqsadida O'zbekistonda qanday jamg'armalar faoliyat ko'rsatadi?
9. 1992-yilda qabul qilingan Ta'lif to'g'risidagi Qonin nima uchun 1997-yilda o'zgartirish kiritilgan edi?
10. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat?
11. Bugungi kunda iajtimoiy-siyosiy barqarorlikka havf soluvchi ichki va tashqi tahdidlar nimalardan iborat deb hisoblaysiz?

## **18-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA MA'NAVİY-MADANY ISLOHOTLAR.**

**Reja:**

1. Madaniy meros, ma'naviy qadriyat va an'analarning tiklanishi.
2. Istiqlol yillarida ilm-fan, san'at va adabiyot.
3. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning nivojlanishi.

### **Адабиётлар.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., “O'zbekiston”, 2016.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т., “Ўзбекистон”, 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иктисад, сиёсат, мағкура. Асарлар, 1-жилд. – Т., “Ўзбекистон”, 1996.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Т., “Шарқ”, 1998.
5. Каримов И.А. Миллий истиқлол мағкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончdir: «FIDOKOR» газетаси мухбири саволларига жавоблар. – Т., “Ўзбекистон”, 2000.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., “Ma'naviyat”, 2008.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., “Ўзбекистон”, 2011.
8. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатdir. –Т., “Ўзбекистон”, 2015.
9. Баркамол авлод орзуси. – Т., “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, 2000.
- 10.Мустақиллик: Изоҳли илмий – оммабоп лугат // Р. Рӯзиев ва К. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т., “Шарқ”, 2006.
- 11.Jo'rayev N. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – To'ldirilgan, qayta nashr. – Т., “G'afur G'ulom”, 2009.
- 12.Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. – Т., 2015. –B. 157-168.
- 13.[www.manaviyat.gov.uz](http://www.manaviyat.gov.uz). - O'zbekiston Respublikasi ma'naviyat targ'ibot markazi.
- 14.[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz). - O'zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy Milliy kurubxonasi.
- 15.[www.iza.uz](http://www.iza.uz). - O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi.
- 16.[www.kamolot.uz](http://www.kamolot.uz). - O'zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar harakati.

## **1.Madaniy meros, ma'naviy qadriyat va am'analarning tiklanishi.**

Mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti ma'naviyat-madaniyat sohasi hisoblanadi. Juhon tajribasi shuni ko'ssatmoqdaki, biron-bir mamlakat odamlari ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ana shu nuqtai-nazardan istiqlol yillarda ma'naviy merosni tiklash borasida qanday ishlar qilindi? 1991-yildan boshlab yurtimizda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yillik yubileyi nishonlanishidan boshlab to bugungi kunga qadar o'tkazilgan yubileylarni xronologik izchillikda o'r ganib chiqing. Tarixiy xotiraning tiklanishi („Shahidlar xotirasi“, „Xotira va qadrlash kuni“, qadimi shaharlarimiz yubilaylari) xalqaro miqyosda keng nishonlanishini yoriting.

Milliy qadriyatlar tushunchasi, xalqimizning milliy qadriyatlar, ularga sovet davrida bo'lgan munosabat, „Navro'z“ning tiklanishi, Respublika „Ma'naviyat va ma'rifat“ jamoatchilik markazi, „Oltin meros“ xalqaro xayriya jamg' armasining tuzilishi, islom olamining jahonga mashhur siymolari merosining tiklanishi, din va diniy tashkilotlar va davlat o'tasidagi munosabatlarning oqilona yo'lga qo'yilishi masalalarini yoriting.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, 2016-yil 13-mayda "Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Farmonining ona tilmiz mavqeini yanada yuksaltirishdagi tarixiy ahamiyatiga e'tibor qarating.

Milliy istiqlol g'oyasi, uni hayotga tadbiq etishda Prezidentimiz I.Karimov asarlarida ilgari surilgan g'oyalami tahlil qiling.

## **2.Istiqlol yillarda ilm-fan, san'at va adabiyot.**

Ilm-fan mamlakat taraqqiyotining kafili hisoblanadi. Mamlakatimizda ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar, Prezidentimiz Farmonlariga e'tibor qarating. 1997-yilda Prezident farmoni bilan Xorazm Fanlar akademiyasi – "Ma'mun akademiyasi"ning qayta tiklanishi, 2011-yilda Toshkentda Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonani o'z ichiga olgan Ma'rifat markazining ochilishi, rivojlangan mamlakatlar oliy o'quv yurtlari filiallalarining tashkil etilishi (Britaniyaning Vestministr universiteti, Turin politekhnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Janubiy Koreya Inxa universiteti va boshq.) dan ko'zlangan maqsad-vazifalar nimalardan iborat?

Istiqlol yillarda badiiy adabiyot, teatr san'ati, kino, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, o'zbek sirk, milliy musiqa va qo'shiqchilik ("O'zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasi, "Asrlarga tengdosh navolar", "Boqiy ovozlar", "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq tanlovlari, "Sharq taronalar" Xalqaro musiqa festivali va boshqalar), muzeylar hamda shaharsozlok madaniyatining ravnaqini yoritib bering.

### **3.O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.**

Istiqlol yillarda sport O'zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi. O'zbekiston sportini rivojlantirish borasida qabul qilingan qonunlar, qarorlar, Prezident Farmonlarining amaldagi ijrosi sifatida qilingan ishlarni yoriting. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining tuzilishi, uch bosqichli sport musoboqalari ("Umid nihollari", "Sog'lom avlod" va "Universiada")ning o'tkazilishi, zamonaviy sport inshootlarining buniyod etilishi "Sog' badanda sog'lom aqil" taomilining amaldagi ifodasi ekanligini ko'rsatib bering.

O'zbek kurashining tiklanishi, kurashchilarimiz, bokschilarimiz, tennischilarimiz, futbolchilarimiz, og'ir va yengil atletikachilarimizning xalqaro turnir, jahon championatlari, Osiyo o'yinlari va jahon qishki va yozgi Olimpiadalardagi g'alabalari bugungu kinda davlatimizning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibori samarasi ekanligini yoriting.

#### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Qadriyat. Milliy qadriyatlar. Madaniy meros. Mafkura. „Shahidlar xotirasi“. „Xotira va qadrlash kuni“. „Navro'z“. „Ma'naviyat va ma'rifat“ jamoatchilik markazi. „Oltin meros“. Davlat tili. Milliy istiqlol g'oyasi. Xorazm „Ma'mun akademiyasi“. Ma'rifat markazi. „O'zbeknavo“. „Asrlarga tengdosh navolar“. „Boqiy ovozlar“. „O'zbekiston – Vatanim manim“. „Sharq taronalari“. „Umid nihollari“. „Sog'lom avlod“. „Universiada“. Milliy olimpiya qo'mitasi.

#### **Munozara uchun savollar.**

1. Qadriyat deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy qadriyatlarimizni sanab bering.
3. Istiqlol yillarda qaysi buyuk vatandoshlarimizning yubileyлari nishonlandi?
4. Prezidentimiz fikricha ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar qaysilar?
5. Globallahuv deganda nimani tushunasiz?
6. Globallahuvning ma'naviyatimizga tahdidi nimalarda ko'rinxmoqda?
7. An'anaviy "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali qachondan boshlab o'tkazilib kelinmoqda?
8. Xorazm "Ma'mun akademiyasi"ning 1000 yilligi qachon nishonlandi?
9. Istiqlol yillarda o'zbek kinosida qanday yangiliklar bo'ldi?
10. Mustaqillik yillarda o'zbek musiqa san'atiga qanday baho berasisz?
11. Olimpiada championi bo'lgan o'zbekistonlik sportchilardan kimlarni bilasiz?
12. Uch bosqichli sport musoboqalarini o'tkazishdan maqsad nima?
13. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya" shiorini qanday izohlaysiz?

## **19-MAVZU: O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI.**

### **Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatining asosiy tamoyilari.
2. O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.
3. MDH va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik.
4. O'zbekistonning xonijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqaлari.

### **Adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., “O'zbekiston”, 2016.
2. Каримов И.А. БМТ Бош Ассамблеясининг 48-сессиясидаги маъруза. 1993 й. 28 сентябр. Асарлар 2-жилд. –Т., “Ўзбекистон”. 1996. –Б. 47-57.
3. Каримов И.А. Минтақавий хавфсизликдан ялпи хавфсизлик сари. БМТ Бош Ассамблеясининг 50-сессиясидаги маъруза. 1995 й. 24 октябр. Асарлар 4-жилд. –Т., “Ўзбекистон”. 1996. –Б. 56-59.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т., “Ўзбекистон”. 1997.
5. Каримов И.А. БМТ Бош Ассамблеясининг Мингйиллик ривожланиш максадларига бағишлиланган олий даражадаги ялпи мажлисидаги нутк. Нью-Йорк. 2010 й. 20-сентябр. Асарлар. 19-жилд. –Т., “Ўзбекистон”. 2011. –Б. 10-20.
6. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп лугат // Р. Рўзиев ва К. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т., “Шарқ”, 2006.
7. Ражабова М.А. Диний экстремизм ва террорчилик. –Т., 2000.
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т-12. -Т., 2005. –Б. 210-215.
9. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / К. Ражабов ва бошк. масъул мухаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва кайта ишланган бешиичи нашри. – Т., “Ўзбекистон”, 2012. –Б. 275-439.
17. Qodirov B., Matyaqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha izohli lug'at. – Т., 2015. –Б. 168-174.
10. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalı.
11. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz) - O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lif portalı.
12. [www.udu.uz](http://www.udu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi portalı.
13. [www.press-servis.uz](http://www.press-servis.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
14. [www.uz.a.uz](http://www.uz.a.uz) - O'zbekiston milliy axborot agentligi.
15. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) - O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.

## **1.O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.**

Birinchi savolga javob berganda o'z diqqat e'tiboringizni avvalo mustaqillik yillarda ishlab chiqilgan konstitutsiyaviy tashqi siyosat prinsiplarimizga, hamda uning huquqiy asoslariga qarating. Bu o'rinda tashqi siyosatimizning yo'nalishlarini belgilaydigan qonunlarimizga qisqacha to'xtalib o'ting.

O'zbekistonning boy tabiiy xom ashyo zahiralari, xalqimizning aql-zakovati, ma'nnaviy imkoniyatlari, uning geografik o'mi, dunyo mamlakatlarida qiziqish uyg'otadi. Bu esa ogoh va xushyor bo'lishi, o'z mustaqilligimizni saqlab qolish va mustahkamlashni taqozo etadi. O'zbekiston tinchliksevar davlat. U hech bir davlatning ichki ishlariiga aralashmaydi, barcha harbiy-siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishga va ularning oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvvatlab keldi. Bu borada O'zbekiston xalqaro maydonda qanday ishlarni amalga oshirdi?

O'zbekistonning BMT, YEXHT bayrog'i ostida Tojikiston va Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash borasidagi faoliyati, NATO ning "Tinchlik yo'lida hamkorlik dasturi", Qo'shilmaslik harakatidagi ishtiroki, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi zonaga aylantirishdagi tashabbusi masalalariga e'tibor qarating.

## **2.O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqil rivojlanishga o'tgan davrda suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatining to'laqonli a'zosi, xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti bo'lib qolganini u jahon maydoniga chiqib olganini ta'kidlash lozim. Bu jahonshumul tarixiy ahamiyatga molik g'alaba hisoblanadi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro siyosatda mustaqil qatnashadigan bo'lib xalqaro maydonda o'z o'miga ega bo'ldi, u xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli va teng huquqli aloqalarni rivojlantirib kelmoqda.

Hozirgi ilmiy-tehnikaviy asrda bir mamlakat birgina o'z kuchi, o'z boyligi bilan o'z-o'zini ta'minlay olmaydi, bu esa mamlakatlardan o'zaro manfaatli integrasiyani rivojlantirishni talab qilishni bilmox lozim. O'zbekiston xalqaro maydonga chiqishi va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-savdo aloqalarini rivojlantirish, qo'shma korxonalar qurish, turli shartnomalar, bitimlar tuzish orqali integrasiya jarayonlarida qatnashadi va bu jarayonda "bir davlat bilan yaqinlishish hisobga boshqasidan uzoqlashmaslik prinsipiga amal qiladi". Iqtisodiy integrasiya ozodligimizni, iqtisodiy mustaqilligimizni yo'qotmasligimizni, O'zbekistonning biron bir davlatning ta'sir doirasiga tushib qolmasligini ta'minlashi zarurligini talaba tushunib etmog'i lozim.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston qaysi mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi? Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik samaralari nimalarda ko'rinxmoqda? Ushbu masalalarga tarixiy faktlar orqali xulosalar bering.

O'zbekiston 1992-yildan BMT tarkibiga kirib, boshqa mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirib berayotganligi, u eng yirik bank va moliya tashkilotlari bilan ham yaqindan hamkorlik qilib, o'z havfsizligini ta'minlash yo'lidan borayotganini talaba fahmlashi lozim. O'zbekistonning xalqaro maydonda nufuzli oshib borishda

yurtboshimizning 1993-yil 28-sentabr BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qatnashib undagi nutqida O'zbekistonni tanitganligini ta'kidlash lozim.

1995-yil 24-oktyabrdan I.A.Karimov BMTning 50 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi ahamiyatini ochib bering.

Prezidentimizning 1992-yil 26-fevralda Xelsinki hujjatiga imzo chekishi Xalqaro qabul qilingan normalarga bo'yusunishi rasman e'lon qilganligini tushunib oling.

1996-1997-yillarda Yevropa Ittifoqi bilan Yevropda Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti YEXHT va NATO kabi xalqaro tashkilot bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilishi Respublikamiz xavfsizligi va hamkorligi taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil ekanligini bilish zarur.

1996-yil dekabrda Lissabon shahridagi anjumanda YEHXT bilan munosabatlarni rivojlantirishdagi jarayon salmoqli bo'lganligi, I.A.Karimov YEHXT ning O'rta Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid taklif kiritganligini va bu esa uning yakunlovchi xujjatga kirganligini bilib olish shart.

### **3.MDH va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik.**

Ushbu savolga javob berishi uchun I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari 320-323 betlaridan O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari darajasidagi integrasiyaga alohida e'tibor berish zarur. Chunki "... bu integrasiya o'z mohiyatiga ko'ra hamisha xalq integrasiyasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Butun tarix davomida bu mintaqqa xalqlari ajnabiy bosqinchilar hukmronligiga qarshi yelkama-yelka turib kurashib kelganlar. Bu xalqlarini mustaqillikni qo'lga kiritish, mustaqil davlat tuzish g'oyalari birlashtirgan. Bu xalqlar Turkiston deb nom olgan ulkan zaminda asrlar davomida yashab kelganlar".

O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasida integrasiya ob'yektiv zaruratdir. Chunki bu mintaqadagi hududiy birlik, kommunikasiyalar, iqtisodiyot yetakchi tarmoqlarining mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika ob'yeqtolarini bирgalashib ishlash, energiya zahiralari bilan ta'minlash ehtiyojlardan kelib chiqdi. Xuddi shu boisdan 1993-yil 3-4-yanvarda O'rta Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida I.A.Karimov Markaziy Osiyo hamkorligini vujudga keltirish, 1995-yilda esa "Turkiston umumiyligini shiorini ilgari surdi. Agar 60 million aholisi bo'lgan O'rta Osiyo mamlakatlari tashqi kuchlarning qarshiligiga qaramay an'anaviy o'zaro integrasiya yo'lidan borsalar, u holda Markaziy Osiyo xalqlari o'zlarini-o'zlar barcha sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmay, ortiqcha mahsulotlarini jahon bozorida sotishga va munosib ijtimoiy turmush farovonligiga erishadilar.

Markaziy Osiyoda yagona iqtisodiy makon, yagona iqtisodiy siyosat olib borilar ekan, mudofaa siyosatlarimiz uyg'unlashar ekan, bu mintaqaviy integrasiyalashuv jarayoni ijtimoiy taraqqiyot talablariga ham, mintaqqa xalqlarining manfaatlariga ham to'la mos tushadi. Bu integrasiya tashqaridan bo'ladigan tahdidilarga bирgalikda qarshi kurashishga, tomonan mustaqillikni saqlab qolishga, havislik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lardi. Shu ma'noda Prezidentimiz

I.A. Karimovning "Markaziy Osiyo hamdo'stligi o'rtasidagi integrasiya bu XXI asrda bizning mustaqillik va taraqqiyot yo'limizdir" degan so'zlarining mag'zini chaqing.

#### **4.O'zbekistonning xorijiy mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari.**

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab jahondagi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Bu borada O'zbekistonning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari (Turkiya, Pokiston va Eron Islom respubliklari) bilan hamkorlik aloqalari (Mashxad-Seraks-Tajan temir yo'lining ishga tushirilishi), Hindiston, Xitoy (Qamchiq dovonni temir yo'l loyihasi, to'qimachilik korxonalar) va ayniqsa Uzoq Sharq mamlakatlari Janubiy Koreya Respublikasi va Yaponiya (Asakadagi Avtomobil zavodi, Inxa universiteti, "Isuzu", „Mitsui“, „Mitsubishi“, „Itochu“, „Sumitoto“, „Tomen“, „Marubeni“, „Nishe Imai“ va boshq.), Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari (Vyetnam, Indoneziya, Singapur, Malayziya) bilan keng ko'lamli savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikabiy hamkorlik masalalariga qisqacha to'xtaling.

G'arbiy Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlari bilan Yevropa Ittifoqi, YEXHT, NATO doirasida bir tomonlama va ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlik samaralarini ochib bering.

AQSH ("Zarafshon-Nyumont", "O'z-Teksako", "O'z-Keysmash", "O'z-Keystraktor", "O'z-Eksayd", "BiEyAy", "ABB Lummus Global"), Germaniya Federativ Respublikasi ("Geydelberg", "Rastr", "Groteks", "Xobas TAPO", "Xiva Karpet"), Fransiya ("Kredit Kommersial de Frans", "Elf-akiten", "Texnip") firma. Banr va yirik moliya tashkilotlarining O'zbekiston iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdagi o'rmini yoriting.

#### **Mavzuning tayanch tushunchalari.**

Xalqaro ahvol. "Sovuq urush". Tinchlikka xavf soluvchi tahdidlar. O'zbekistonning geosiyosiy o'mi. Tashqi siyosat tamoyillari. O'zbekiston va BMT. YEXHT. YUNESKO. YUNISEF. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi. SHHT. O'zbekiston va MDH. MOIH. MOH. O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari. O'zbekiston va AQSH. O'zbekiston va Yevropa mamlakatlari hamkorligi.

#### **Munozara uchun savollar.**

1. XX asr oxirida xalqaro vaziyatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Xavfsizlikka qanday omillar tahdid solmoqda?
3. O'zbekistonning geosiyosiy jihatdan qulay imkoniyatlari nimalardan iborat?
4. Mustaqil tashqi siyosat yuritish borasida qanday huquqiy zaminlar yaratildi?
5. O'zbekistonning tashqi siyosati qanday tamoyillarga tayanadi?
6. O'zbekiston nima uchun jahon hamjamiatiga qo'shilish yo'lidan bormoqda?
7. O'zbekistonning BMT bilan aloqalari haqida so'zlab bering.
8. O'zbekistonning YEXHT bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?

9. O'zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi haqida so'zlab bering.
  10. Shanxay hamkorlik tashkilotining tuzilishi va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
  11. MDH qachon tashkil topdi, unga qaysi respublikalar a'zo bo'lib kirdi?
  12. MDH faoliyatidagi salbiy va ijobiy tomonlar nimalarda o'z ifodasini topdi?
  13. O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtaida davlatlararo munosabatlarning o'matilishi haqida so'zlab bering.
  14. Markaziy Osiyo respublikalari o'rtaida aloqalarining yo'lga qo'yilishi haqida nimalarni bilasiz?
  15. Orol muammosini hal qilish yo'lida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
  16. O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan tuzilgan abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnomalarning mohiyati nima?
  17. O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari hamkorlik aloqalari haqida so'zlab bering.
  18. Siz yashayotgan viloyat, shahar va tumanda chet el sarmoyalari ishtirokida qanday qo'shma korxonalar tuzilgan?
- 

Adadi 50 nusxa. Hajmi 4,25 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>  
«Times New Roman» garniturasi. Ofset usulida bosildi.  
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.  
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.